

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKUL'DET

IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

Qodirov Azizbekning

**Keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ijtimoiy ish
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: O.Soliev, Ijtimoiy ish kafedrasi o'qituvchisi

FARG'ONA-2017

M U N D A R I J A

KIRISH

1-bob. Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning nazariy va metodologik asoslari.

1.1. Keksalik guruhlari va ularni muhofazalash masalalari.

1.2. O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarda keksalar faolligini oshirish masalalari.

2-bob. O’zbekiston ijtimoiy siyosatida imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ish olib borish masalalari.

2.1. O’zbekistonda nogironlikni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati.

2.2. Imkoniyati cheklangan jarayonida ijtimoiy ish xodimining maqsad va vazifalari.

2.3. Nogiron bolalarni ta’limga jalb qilish etishda ijtimoiy ish xodimning o’rni va ahamiyati.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbliji. Insoniyat tarixidan ma'lumki, har qanday jamiyat turli ijtimoiy guruh va qatlamlardan tashkil topadi. Ularning o'ziga xos manfaat va ehtiyojlari mavjud bo'lib, shu jamiyat aholisi har bir ijtimoiy guruhga o'z munosabati hamda siyosatini ishlab chiqadi, uni amaliyotga tatbiq etishga harakat qiladi.

Inson tabiatning eng oliv ne'mati, betakror xilqatidir. Inson tug'iladi, parvarishga muhtoj bo'ladi, ota-onasi, yaqinlari uni tarbiyalab, oyoqqa turg'azadi, avlodni davom ettiradi, farzandlar tarbiyalaydi, keksayib, yana eng yaqin kishilari yordamiga muhtoj bo'ladi. Odamlar hayotiy bosqichlarining mo''tadil kechishi uchun jamiyat va oilada zamin tayyorlaydi. Bu tayyorgarlik xalqlarning turli urfodatlarida, ahloqiy qadriyatlari va e'tiqodlarida o'z ifodasini topgan. SHu bois, jamiyat va oilada qariyalarga munosibat ham shular jumlasiga kiradi. Umuman olganda, qariyalarni, avvalo, boy hayotiy tajribaga ega, hayotning achchiq-chuchugini ko'rgan insonlar sifatida hurmat qilish. Lozim bo'lsa ularni ijtimoiy muhofaza qilish mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridandir.

Shu ma'noda keksalarni faollashtirish va inson uzoq yashashi uchun sog'lom turmush kechirishi, ulardan muayyan yoshda foydalana olish uchun qulay tarzga keltirish, shuningdek, katta yoshdagilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga to'liq bo'limgan ish kunlari joriy etish, keksayganda barqaror daromad va tibbiy xizmatni kafolatlaydigan shartnomalar tuzish tizimini yaratish haqida bilim hosil qilish O'zbekistonning barcha jabhalaridagi taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

Shu o'rinda alohida ta'kid joizki, agar keksa avlodga munosabatda milliy va umuminsoniy tamoyillarga asoslanmasak, avlodlar o'rtasidagi vorislikni ta'minlay olmaymiz. Shunga ko'ra qariyalarni hurmat qilish, ular sog'lom turmush sharoitida yashashlari uchun imkoniyat yaratib berish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar

o’z ota – onalari haqida g’amxo’rlik qilishga majburdirlar» (O’zb R.K. 66 - modda) deb belgilab qo’yilganligi amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning qonuniy asosini tashkil etadi.

Mazkur qonunning harakat rejasi sifatida 1997 yil - «Inson manfaatlari yili», 1998 yil - «Oila yili», 1999 yil - «Ayollar yili», 2000 yil - «Sog’lom avlod yili», 2001 yil - «Onalar va bolalar yili», 2002 yil - «Qariyalarni qadrlash yili», 2003 yil - «Obod mahalla yili», 2004 yil - «Mehr va muruvvat yili», 2005 yil - «Sihat - salomatlik yili», 2006 yil - «Homiylar va shifokorlar yili», 2007 yil «Ijtimoiy himoya yili» davlat dasturlari respublikamiz rivojining solnomalari bo’lib xizmat qilmoqda.

Jumladan, “Ijtimoiy ximoya yili” davlat siyosati O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 23-yanvardagi “PQ”-573-sonli qaroridagi

- etim-esirlar;
- muhtoj kimsalar;
- kam taominlanganlar;
- ko’r bolali oilalar;
- nogironlar;
- yolg’iz qariyalar;
- faxriylar;
- pensionerlar;

- yosh bolali onalar kabi tarkibli ko’rsatmada o’z ifodasini topdiki, bu keksalarga ulkan ijtmoiy imkoniyatlar yaratib berdi.

Hukumatimiz tomonidan ko’rsatilayotgan g’amxo’rlik, yaratilayotgan shart-sharoit, yo’naltirilayotgan moddiy va nomoddiy resurslarning adresli ijrosini nazorat qilish, zaruriy chora-tadbirlar tashkil etish mas’uliyati davlat xokimiyyati organlari, fuqarolik jamiyati qurilishi tizimi mutasaddiyatlari ayniqsa, ijtimoiy ishchi zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. CHuni, Prezidentimiz «... *El-yurtimizga ko’p mehnati singan, hozir ham o’zining hayotiy o’gitlari bilan ibrat bo’lib kelayotgan muhtaram faxriylar va pensionerlarimizning sog’lom va mazmunli umr kechirishi uchun sharoit yaratib berish bo’yicha avvalgi yillarda boshlagan ijobiy*

ishlarimizni, albatta, davom ettiramiz» mazmunidagi muddaolari ijtimoiy ishchi kasbiy faoliyati uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston respublikasining mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib, jamiyat hayotining barcha sohalarida olamshumul tarixiy yutuqlarni qo'lga kiritishida, jahondagi nufuzining ortib borishida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohotlarning roli nihoyatda kattadir. Bu islohotlarning eng yuqori pog'onasida sog'lom avlodni tarbiyalash yotadi desak mubolog'a qilmagan bo'lamiz. Sog'lom avlodni tarbiyalashning bosh mezoni esa bolalar salomatligiga, qolaversa ularning ma'naviy yuksalishiga yuksak e'tibordan kelib chiqishi hech kimga sir emas. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, - "... bola tarbiyasida sog'lom nasl rolъ o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Ana shuni har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Shaxsan menga "nasl" va "nasaba" degan so'zlar o'rtasida qandaydir ilohiy bog'liqlik bordek tuyuladi".¹

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, sog'liqni saqlash va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash sohasidagi islohotlar tizimida bolalar salomatligiga e'tibor har doimgidan dolzarb muammoga aylandi. Qolaversa, bugungi kunda tug'ilajak yosh avlodni tug'ma nuqsonlarsiz tug'ilishini ta'minlash, nogiron bolalarni esa oilani kuchli ijtimoiy himoyalash orqali davlat ixtiyoridagi muruvvat uylariga tushib qolmasligini ta'minlash eng muhim masalalardandir. SHu bois bizning maqsadimiz mamlakatimizda mustaqillik yillarida bolalar salomatligi va nogiron bolalarning dolzarb muammolarini hal qilish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar va ularning amaliy ifodasi natijalarini tahlil qilishga bag'ishlanganligini hisobga olgan holda uni dolzarb deb hisoblaymiz

¹ Karimov A.I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.; "Ma'naviyat" 2008, B. 56

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bolalarning nogiron bo'lib tug'ilishini oldini olish va nogironlikning kelib chiqishi va ularni muhofaza qilish, shuningdek, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga bag'ishlangan bir qancha Davlat dasturlari qabul qilindi. Buning amaliy samaralari hozirda o'zining mevasini bera boshladi.

Nogiron bolalar salomatligini muhofaza qilishning o'mni haqidagi fikrlar birinchi prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida, shuningdek ilmiy tadqiqotlardan S.S.Solixo'jaev, SH.I.Karimov, R.G.Muhamadiyorova, F.G'.Nazirovlarning izlanishlarini misolida keltirib o'tish mumkin. Bundan tashqari J.J.Qurbanovning "Baxtli ona bo'ling" nomli risolasida ham bolalar salomatligi, ayniqsa yosh chaqaloq sog'lig'ini muhofaza qilishda onalarga kerakli tavsiyalar beriladi.

Ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy va ma'naviy, moddiy yordamga zor nogiron bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish masalalari g'oyat dolzarb masalalardan biri bo'lib, bu bir qator huquqiy xujjatlarda o'z ifodasini topgan¹. SHuningdek, bu muammoning ayrim aspektlarini o'z ichiga olgan asarlarda ko'rsatib o'tilgan. Masalan, Gluvdenko P.P, Filolenko V. I, Gurevaya P. S, Andreev I. L. , Alekseev V. T va boshqalarning asarlarida nogiron bolalarning ijtimoiy himoya olish kafolatlari haqida so'z yuritiladi.

Nogiron bolalar va ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish borasida mamalakatimizga xos sifatlar haqida prezidentimiz I. Karimov asarlarida², shuningdek, F. Nabiev, Q. Nazarov, A. Norbekov, N. Jo'raev, R. Karimov va boshqalarning asarlarida so'z yuritilgan. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlardan D.

¹ "O'zbekiston respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (yangi tahrirda) 11.07.2008. 2000-2005 yillarda yolg'iz keksalarni, pensionerlar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 1999 y. 7 dekabrb //Xalq so'zi.-1999.-8 dek.; O'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida: Vazirlar Mahkamasining Qarori 2000 y. 29 iyul //O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlari to'plami.-2000.-№7.-B.48-49. Nogironlar va pensionerlarni sanatoriya-kurort sihatgoh yo'llanmalari bilan bepul ta'minlash tartibi to'g'risida yo'rqnoman ni tasdiqlash haqida: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Qarori 2005 y. 24 may //O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.-2005.-№27.-B.22-23.

² Karimov I.A. Jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. T.: - «O'zbekiston». 2009. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masoulmiz, T. 9. -T.: «O'zbekiston», 2001. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. T. 8. -T.: «O'bekiston», 2000.

Isaeva, Tadjieva S.X., M.X.Ganieva, M.X.Karamyan, L.E.Kim va A.V.SHubina va boshqalarning izlanishlari ushbu mavzuga aloqador turli yondashuvlarga duch kelishimiz mumkin. Lekin bu asarlarda O'zbekistonda aynan nogiron bolalar bilan ishlashda ijtimoiy ish xodimining o'rni va roli masalasi bilan bog'liq muammolar va yechimlar haqida juda qisqa ma'lumotlar bilan cheklanilgan.

Xullas, mustaqillik yillarida bolalar salomatligiga, xususan nogiron bolalar salomatligiga bag'ishlangan bir qancha izlanishlar olib borildi va olib borilmoqda. Ammo, ularning ko'pchiligidagi nogiron bolalarning muruvvat uylariga tushib qolishlarining bunday bolalar ruhiy olamiga salbiy ta'siri, uni oldini olishda oilaning o'rni qanday bo'lishi masalasiga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy hayot taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan islohotlar tizimida keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar salomatligi va ularni ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy ish hodimining o'rmini aniqlash va uni har jihatdan qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning hayotimizdagi o'rmini ko'rsatish.

Tadqiqotning vazifalari:

- keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslar salomatliklarini muhofaza qilishda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'naliшlarini aniqlash;
- nogiron bolalar salomatligi borasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan Dasturlarning mamlakatimiz ijtimoiy hayotidagi o'rmini aniqlash;
- keksalar salomatligi maslalasida davlatimizning oila va qolaversa, mahallalarning oldiga qo'ygan vazifalarining amaliy ifodasini topish jarayonini tadqiq qilish;
- keksalarni "Saxovat uylari"ga tushib qolishlarini oldini olishda oilani kuchli ijtimoiy himoyalashning ahamiyatini ko'rsatish;
- nogiron bolalarni oila muhitida va oilaning g'amho'rligi ostida maxsus maktab-internatlarda kasbga o'qitish orqali ularni jamiyatimizning faol a'zolari qilib shakllantirishning davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashdagi muhim masalalaridan biri ekanligini aiqlash;

- nogiron bolalarni ruhan sog'lom va aqlan yetuk bo'lib kamol toptirishda oilaning tarbiyaviy ahamiyatini aniqlash bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligini va uning asosiy omillarini aniqlash va xok.

Tadqiqotning predmeti

Mamlakatimizning ertangi ijtimoiy taraqqiyotini belgilovchi omillardan biri bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash eng oliv maqsad ekanligi, keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni to'laqonli faol hayotga jalg qilishda ijtimoiy ish xodimining o'rni, bu boradagi amaliy tadbirlarning mazmun-mohiyati va uni o'rGANISH jarayoni olindi.

Tadqiqot metodologiyasi qilib ob'jektivlik va sub'jektivlik, sistemaviylik, rivojlanish, umumiy aloqadorlik, milliylik va umuminsoniylik, shuningdek, analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish kabilar belgilab olingan.

Natija, ilmiy faraz

Ishning ilmiy - nazariy ahamiyati shundaki, unda keksalar va imkoniyat cheklangan shaxslar muammolari, ularni oila yordamida bartaraf etish - ijtimoiy taraqqiyot asosi ekanligini anglagan holda amalga oshirilayotgan tadbirlar tushunchasi mohiyatini o'rGANISHGA sistemali yondoshish uslubi va metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot ob'jekti sifatida uning yuqoridagi maqsadidan kelib chiqqan holda, ayni ushbu muammoni hal qilish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar belgilab olindi.

Tadqiqot tuzilishi. Tadqiqotning hajmi kirish, 2 bob, 5ta paragraf, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB. Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning nazariy va metodologik asoslari.

1.1.Keksalik guruhlari va ularni muhofazalash masalalari.

Maъlumki qariyalar (gerontoguru), ularning o'ziga hos hususiyatlari yakka shaxc, kichik guruhlar va ijtimoiy tizimdagи o'rниga karab, o'rganiladi.

Birinchi yunalishda qarilik boshlanishi bilan shaxsning rivojlanishi tekshiriladi. Tarjimai holining dastlabki bosqichlari va kasbiy faoliyatining qariyaning shaxsiy xarakteriga ta'siri, uning keyingi davrdagi tabiatи o'rganiladi. Hayot tarzini o'zgartirish qobiliyati, nizoli vaziyatlarda o'zini tutishi (eng avvalo, avlodlararo nizolarda), ehtiyoj, qiziqishlari tahlil kilinadi.

Ikkinchi yunalishda qariyaning ishlab chiqarish jamoasida, ko'shnilar orasida, do'stlar, tanishlar, qarindoshlar hamda oila davrasidagi o'rni, vazifasi va bajaradigan ishlari o'rganiladi.

Uchinchi yunalishda gerontoguruuning jamiyat jarayoniga aralashishi, siyosiy voqealarga ta'siri o'rganiladi.

Hozir qarilikni tushunishda ijtimoiy gerontologik nazariyalar bo'yicha quyidagilar alohida diqqatga sazovor: ajralish, faollik o'z madaniyati va yosh tizimidagi farqlanish.

Ajralish nazariyasida (E. Kaminz va U. Xenri) qarilikdan qochib qutulib bo'lmaydigan o'zaro begonalashish, qariyotgan shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro harakatning pasayishi tushuniladi. Buni yana "ozod bo'lish nazariyasi" deb ham atashadi. Go'yoki qarilik uni jamiyat oldidagi barcha majburiyatlardan ozod kilar emish.

Amerikalik sotsiolog Robert Batlerning - "eydjeizm" (ingliz tilida "eydj" - yosh) nazariyasi bir hil yoshdagi guruhlarning boshqalariga nisbatan munosabatida kamsitishni anglatadi. Uning fikricha, odatda, eydjeizm Amerika jamiyatida eng past mavqega ega bo'lgan katta yoshdagi guruhga nisbatan

ishlatiladi. R.Batlerning fikricha, "eydjeizm yoshlar va o'rta yoshlilar orasida chukur ildiz otgan qarilikni yoktirmaslikni aks ettiradi. Ular qarilik, kasalliq, mehnatga layoqatsizlikni yoqtirmaydi va undan jirkanadilar hamda yordamga muhtojlik, "foyda keltirmaslik" va "o'lim" qarshisida qo'rquvni hic qiladilar.¹"Eydjeizm, ayniqsa, AQSHda kuchli, - deb ta'kidlaydi Smelzer, - chunki u yerda hamma vaqt mahorat, kuch, yoshlik va g'ayrat qadrlangan. Yevropa va Yaponiyada esa qariyalarga munosabat buning aksidir".

Polyak sotsiologi Helena Izdebskaya 200 talabaning (19 yoshdan 22 yoshgacha) buva va buvilariga munosabatlarini o'rgandi. So'rovda qatnashganlarniig ko'pchiligi ularni yoktirmasliklarini, ularga nisbatan yahshilik tilash, hurmat va mas'uliyat hissi yo'qligini aytgan. Ularning fikriga ko'ra, qariyalar ularga buyinturuq bo'lmasliklari kerak qariyalar bilan yaqin qarindoshlari emas, balki davlat, jamiyat shug'ullanishi kerak. Ularning asosiy kismi buva-buvilarning hayot muammolarini qariyalar uyi hal kilishi keraq deya fikr bildirdi.²

Yillar o'tishi bilan keksalar fe'l-atvorida, ruhiyatida o'zgarishlar yuz beradi. Qariyaning xatti-harakati va holatini uning yoshiga qarab baholash mumkin, chunki turli yoshda insoniy fazilatlar har hil bo'ladi. Keksalarning tabiatidagi o'zgarishlar uning ta'sirlanishining susayishi bilan belgilanadi. Bundan tashqari, bu yoshda ularga hudbinlik hos bo'lib, kim yetarli e'tibor ko'rsatmasa yoki aksincha, "etarlilik" eng yuqori darajada bo'lsa ham uning barchasiga toqat kilolmaydi. Agar atrofidagilar mehribonlik ko'rsatmasalar, hudbinlar ro'yhatiga kiritiladi. Aytadilarku "Hudbin - bu o'zini mendan ko'ra ortiqroq yaxshi ko'radigan odam". SHu bois aqliy gerontoguruh - yangi bilimlarni egallahsha, kutilmagan sharoitga moslashishda kiyinchiliklar paydo bo'ladi. Yoshlikdagiga o'hshash ba'zi vokeliklarni oson yengishlari mumkin, (yangi uyga ko'chib o'tish, o'zining yoki yaqinlaridan birining kasal bo'lishi), ammo ilgari duch kelmaganlari (umr yo'ldoshining vafoti, kasallik natijasida xatti-harakatdagi chegaralanish, ko'z nurining qisman hiralashishi) qiyin bo'lib ko'rinishi tabiiydir.

¹ Rossiyskaya sotsiologicheskaya entsiklopediya. M., Norma-S 672

² Visnevska-Roshkovsko K. Novaya jizn posle shesti desyati M., 1989-S56-58

Hissiy gerontoguruuhda - asabiy holat kuchayishi (kuchli asabiyashish), arzimas hafagarchilikka ham o'ta asabiyashish, sababsiz ko'z yoshi to'kish asosiy omil bo'ladi. Ta'sirlanish uchun o'tgan davr hakidagi kinofilm ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda inson davrga emas, balki o'sha davrdagi o'zining hayotiga achinadi. Yoki qadron piyola sinsa, unga emas, u bilan bog'liq hotiralar yo'qolayotganiga afsuslanadi.

Ahloqiy gerontoguruuhda - yangi ahloq me'yorlariga moslashib, hulk-atvor odatlardan voz kechish sabab kilib ko'rsatiladi. Bunda odat va me'yorlar keskin, qo'pollik darajasiga yetadigan tarzda tanqid qilinadi. Psixologik tanglik va umr bosqichlari o'ziga hos tarzda namoyon bo'ladi. Bu yoshda ruhiy holat omili bo'lib qariyalik ko'zga tashlanadi, u psixologik tanglikka sabab bo'ladi. Bu tanglik inson umri davomida boshidan kechiradigan tangliklardan eng achinarlisi bo'lib tuyuladi.

Bu borada Amerikalik psixolog Erik Erikson inson hayoti davomida duch keladigan sakkizta ijtimoiy-ruhiy tanglik holatini ko'rsatib o'tgan. Ularning har biri ma'lum yosh uchun o'ziga hos hususiyatga ega. Birinchisi - umrning birinchi yilida. Ikkinchisi - ilk o'rghanish davri bilan bog'lik. Uchinchisi — maktab yoshining ilk davriga mos keladi. To'rtinchisi - maktabning o'rta davrida ro'y beradi. Beshinchi tanglikni o'smirlik davrida boshidan kechiradi. Oltinchi tanglik yetuklik davriga hos. Yettinchi tanglikni inson 40 yoshida boshidan kechiradi. Umrining ohirida so'nggi tanglikka - qarilik tangligiga yaqinlashadi.¹

Erikson o'z g'oyasini rivojlantirib, sakkizinchi davr tangligi sabablari: birinchisi - o'z "men"ining kasbiy shuhratiga bog'lik bo'limgan holda kayta baholash, ya'ni inson birinchi navbatda o'ziga va o'zi uchun javob berishi kerak. "Men o'zim kimman?", "Nafaqaga chiqqanimdan so'ng kanday shugullanaman?" deya o'ylashi kerak. Ikkinchisi - vujudimning qarishi va sog'likning yomonlashishini tushunib yetish. Yana "Sochimni chiroyli turmaklamasam, kelishgan qaddi-qomat va mustaxkam sog'lig'im bo'lmasa, men kimman?" degan savolga javob berishi

¹ Erikson E. Identichnost: yunostъ i krizis. – M., Vlados, 1996

lozim. Erkaklar uchun birinchi tanglikni, ayollar uchun esa ikkinchisini yengib o'tish qiyin. Erkak va ayollar qarilik tangliklariga turlicha munosabat bildiradi.

Demak sakkizinchi tanglik - bu davrga kelib inson oldingi tangliklarni muayyan holda bosib o'tadi. Ohirgi sinovda ular o'z hulq-atvorini qanday to'tishi yetti tanglikdan g'olib yoki mag'lub chiqishiga bog'liq.

Bu haqida Karen Horni insonning hissiy rivojiga bolalik ta'sirini inkor qilmagan holda hozirgisini katta ahamiyatli hisoblagan. "Aniq rivojlanish" yo'li bu - davr bir qadam o'zidan keyingisini jalb etadigan yo'ldir.

Xullas sakkizinchi tanglik (E.Erikson) yoki beshinchi davr (SH.Byuler) bosib o'tilgan hayot yo'lini yakunlashda yetakchilik qiladi va bu tanglikni bartaraf etish mazkur yo'l kanday bosib o'tilganligiga bog'liqdir. "Inson umrini sarhisob qilayotib, uni biror joyda kamaytirmay, kupaytirmay qabul kilsa, kelajakka hotirjam qaraydi. U o'lim umrning tabiiy yakuni ekanini tushunadi"¹.

Rossiyalik olim V.Boltenko usmirlik yoshiga bog'liq bo'lмаган psixologik keksayishning qator bosqichlarini o'rgandi, Birinchi bosqichda inson pensiyaga chiqquncha yetakchi bo'lgan faoliyat turi saqlanib qoladi. Qoidaga ko'ra, bu faoliyat turi pensioner kasbi bilan bevosita boglangan bo'ladi. Ular asosan aqliy mehnat kishilari (olim, san'atkor, o'kituvchi, shifokor) bo'lishgan. Bu bogliklik bevosita ilgarigi faoliyatida katnashish, balki mahsus adabiyotlarni o'qish yoki kasbiy mavzuda maqola yozish shaklida bo'lishi mumkin. Agar bu bog'liqlik pensiyaga chiqqan zaxoti uzilsa, inson birinchi bosqichni chetlab o'tib, ikkinchisiga duch keladi.

Ikkinci bosqichda kasbiy bog'liklikka duch kelishi hisobiga qiziqish doirasi kamayishi ko'zatiladi. Atrofdagilar bilan suhbatda, televizion: yangiliklar, oilaviy vokealar, farzandlarning yutuq yoki muvaffariyatsizliklarini muhokama qilish ustunlik qiladi. Bunday muloqotda suhbatdoshlarning mutahassisligini ajratish kiyin bo'ladi.

¹ Choriev A. Inson falsafasi. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti (birinchi kitob). –T., Yelinior YeNK, 1998-207-208-b.

Uchinchi bosqichda keksaning o'z sog'ligiga g'amhurligi asosiy urin egallaydi. Dorilar, davolash usullari, shifokorlar suhbatning asosiy mavzuiga aylanadi. Gazeta va televizion ko'rsatuvlardagi bu mavzuga alohida e'tibor bilan yondashadi.

To'rtinchi bosqichda hayotni saqlab qolish umr mazmuniga aylanadi. Muloqot doirasi - davolovchi shifokor, ijtimoiy ta'minot hodimi, kadrdon oila a'zosi, eng yaqin qo'shnigacha qisqaradi, nihoyat, beshinchi bosqichda hayotiy harakterdagi ehtiyoj ko'zga tashlanadi (ovqat, osudalik, uyqu...), ortiqcha hissiyot va muloqotlar deyarli bo'lmaydi.

Barcha loyihalar kabi bu ham shartli: birinchi bosqichda barcha beshta davr ehtiyojlari qatnashadi, ikkinchisida - to'rtta, uchinchisida - uchta, to'rtinchisida - ikkita va faqat beshinchisida hayotiy ehtiyojlar qoladi.

Amerikalik psixolog E.Maslou buyuk insonlar tarjimai holini o'rganib, ehtiyoj va imkoniyatlardan foydalanish nazariyasini yaratdi. Uniig fikricha, inson jismoniy ehtiyojdan havfsizlik va o'zini asrash ehtiyojlari tomon zinalar bo'ylab ko'tariladi. Bu yerda sevgi va tan olishlarning yuqorisi o'zini-o'zi hurmat qilish, cho'qqisi - diqqat markazda bo'lishga ehtiyojdir. Har bir davr bu cho'qqi uchun o'z balandligini belgilaydi va inson al'pinist kabi o'z cho'qqisini tanlaydi. Ammo unga chiqishdan so'ng undan tushishning bo'lishi ham tabiiydir. Bu oson emas. Keksalik jozibasi ham ana shunda.

Keksa odam psixologiyasi uchun o'ziga o'zi baho berish va yoshini o'zi his qila olish katta ahamiyatga egadir. Har bir yoshdagi odamda o'zini o'zi baholash yuqori va past bo'lishi mumkin. Ammo keksalikda umrning barcha davrlarini o'z bahosi bilan o'lhash odatdir. Kimki bolalik va o'smirlikdagi psixologik tanglikni oson yengib o'tgan bo'lsa, bir umrlik yuqori izzatga ega bo'ladi, yuqori martabani oddiy imkoniyat bilan bog'lamaydi. Birinchi bosqichni qiyinchilik yoki muvaffaqiyatsizlik bilan bosib o'tgan keksalar bir umrga hamma narsaga ishonchsizlik bilan qarab, aybdorlik hissi bilan munosabatda bo'ladigan insonlarga aylanishadi. Ularni "to'liq yetuklikka erishmagan" deb atash mumkin. Ular keksalikda ham kimdandir, nimadandir qo'rqishadi.

Qariyalarda tushkunlik tufayli o'lim vahimasi yuzaga keladi. Agar inson umr yo'ldoshi, do'stlar, kasb tanlashda hatoga yo'l qo'ydim, umrim bekorga o'tdi (endi uni to'zatib bo'lmaydi), degan xulosaga kelsa, uni biror narsani tuzatishga kuchim yetmaydi, degan kayfiyat qamrab oladi.

Irodasi kuchli odamlar o'lim vahimasini yengib o'tadi, ojizlar esa uning yuki ostida ezilishadi. Il'ya Tolstoy (L.N.Tolstoyning o'g'li) "Mening xotiralarim" kitobida shunday yozadi: "Jismonan kuchli va juda chidamli shaxs sifatida u (L.N.Tolstoy) tabiiy his-tuyg'u bilan nafaqat o'limga qarshi, balki qarilik bilan ham doimo kurashardi. U umrining oxirigacha taslim bo'lindi. O'zi uchun hamma narsani o'zi qilardi, hatto otta yurardi. SHuning uchun unda o'limdan qo'rqish hissi umuman yo'q edi deb taxmin qilib bo'lindi. Bunday qo'rquv unda bo'lgan, hatto ko'proq darajada, u bunday qo'rquv bilan doimo kurashgan. U qo'rquvni yenga oldimi? Aniq, javob beraman - ha".

Ruhoniy Yevlampiy Kremenskiy va'zlaridan birida shunday deydi: "Hayot har bir inson uchun buyuk farog'at bo'lib ko'rindi. Hatto azob chekayotgan mahbusga ham juda qimmatli, har kimga Ollohnning olamiga boqish va o'zini tirik xis qilish yoqimli". O'lim vahimasi fakat insonga xos hissiyot, bunday narsa birorta hayvonda yo'q. SHuning uchun bu insoniy sezgi yengib o'tilishi mumkin.

Rossiyalik psixolog B.G.Anan'ev tushuntirganidek, inson umrining aqlga zid tomoni shundaki, ko'plab odamlarda "o'lish" jismonan munkayib qolishdan ilgariroq ro'y beradi. Bunday xolat shunday odamlarda ko'zatiladiki, ular o'z xohishiga ko'ra, jamiyatdan o'zini olib qochadi, undagi ko'plab vazifalarni rad etadi, bu esa "shaxsiy sifatlar hajmining torayishiga; shaxs to'zilishining o'zgarishi"ga olib keladi. SHaxsiyatini saqlab qolgan o'zoq umr ko'ruchilar bilan qiyoslaganda, "ba'zi bir boshlovchi" nafaqaxo'rlar 60 yoshida munkayib qolganga o'xshab ko'rindi. SHu yoshdan boshlab ularda shaxs o'limining dramatik davri boshlanadi.

U shunday xulosaga keladi: "Mehnat faoliyatining behosdan to'xtashi natijasida insonning mehnatga layoqatliligining imkoniyat va qobiliyatining ajratib

qo'yilishi inson to'zilishida faoliyat sub'ekti: shuningdek, shaxs sifatida chuqr o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin".

Inson uzoq umr ko'rish uchun mehnat qobiliyatini iloji boricha o'zoqroq saqlashi zarur. Keksalik va mehnat qobiliyati murosaga keltirib bo'lmaydigan ikki raqib: mehnat qobiliyati bo'lgan joyda keksalikka o'rin yo'q. Mehnat insonning hayotiy ehtiyoji.

G'arb olimlarining fikricha, bir o'zi yashaydigan va yolg'iz odam bir xil ma'no anglatmaydi. Aksincha, katta oilada yoki ko'p kishilik yotoqxonada yashayotgan odam ham yolg'izlikdan qiynalishi mumkin. Ular tinchlikni yaxshi ko'radilar, odamlar orasida bo'lgandan keyin, yolg'izlikda "kuch yig'ishga" zarurat sezadilar. Mansab, lavozimni yaxshi ko'radigan odamlar (eksvertlar) ular asabini bo'zadi. Yolg'iz yashovchilarning hammasi ham yolg'izlikni qadrlaydi va ardoqlaydi. Yolg'izlik, - deb tasdiqlaydi psixologlar, - bir odamni ikkinchisidan ajratib turadigan masofa bilan o'lchanmaydi. U qarindoshlarining bor-yo'qligi bilan ham bel-gilanmaydi. Buning ustiga yaqin inson hamma vaqt "sizga", albat-ta, "ha" deb javob beradigan odam emas. Aksincha E.Ilbenkovning ta'kidlashicha, "Birlik" (yoki umumiylilik) bir shaxs ega bo'lgan, ikkinchisida bo'lмагan xususiyat bilan vujudga keladi. Ma'lum xususiyatning yo'qligi bir shaxsning ikkinchisiga, bir xil xususiyatlarga ko'ra, qattiqrok bog'laydi.

XX asr inson hayoti tezligini o'zgartirdi. radio, televidenie, kompyuterlardan foydalaniib, axborotlar bilan to'ldirib tashladi, ot tezligini reaktiv tezlik bilan almashtirdi. Zamondoshimiz-shaharlik bir kunda uning buvasining buvasi umr bo'yi ko'rganidan ko'proq odamlarni ko'radi. Faqat bir narsa deyarli o'zgarmaydi inson tabiatining o'zi va o'zi yaratgan narsalarning barchasini o'zlashtirish. Buni eplash qiyin bo'lmoqda. Hozir insonga haddan ziyod ortiqcha vazifa yuklangan.

Ma'lumki, salomatlik va ijtimoiy xulq-atvor keksalikda muhim ahamiyatga ega. Bu "geriatriya" (keksalikni davolash) tushun-chasida ifodalanadi. Mamlakatimizda geriatrik poliklinikalar ham, ushbu ixtisoslik bo'yicha shifokorlar ham yo'q. Vaholanki, keksalarni davolash bolalarni davolash kabi o'zining muxim xususiyatga ega. Geriatr va pediatr - turdosh: kasblar, ularning bemorlari o'z

yoshlariga xos xususiyatni hisobga olishni talab etadi. Zarur tuzatishlar kiritishni talab etadigan qariyotgan organizmning o'ziga xos xususiyatlariga geteroxronologik va geterokinetiklar kiradi. Geteroxronogik - turli organlar uchun har xil jarayonning ifodalanishidir. Geterokinetik - organizmning yoshga qarab, o'zgarishlar rivojining turli tezliklari bilan shug'ullanadi. Keksalik-kasallik emas. Keksalikda ro'y beradigan kasalliklar yuqorida sanab o'tilgan o'ziga hos hususiyatlar zamirida kechadi. I.Davidovskiy shunday yozadi: "Keksalik - bu kasallik emas... Keksalik kasalliklari bilan shartli ravishda qarish ma'nosini aks ettiradi". Bu yoshda kasallik tuzalishi sekinlashib, yashirin hususiyatga ega. Unda sezgilarining pasayishi, organizm imkoniyati zahiralarining kamayishi va yuqumli kasalliklarni qabul qilish ehtimolligi oshishi ko'zatiladi. O'tkazilgan ko'plab tadkikrtlar aholi sog'ligening 80-100 foizi sog'liqni saqlashga, 65-70 foizi ijtimoiy omillarga (yashash tarzi, ichki muhit sharoiti) borliqligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, jamiyatning o'z qariyalariga munosabati keksalarining ijtimoiy, moddiy, bir so'z bilan aytganda, yosh avlodning yahshi shart-sharoiti uchun javobgarlikni qanday his qilishi, jamiyat taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Yoshlarining ijtimoiy majburiyati keksalar umrining so'nggi bosqichlari qiinchiliklarini kamaytirish, ruhiy osonlashtirishdir.

1.2. O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarda keksalar faolligini oshirish masalalari.

Mamlakatimizda ma’rifatli jamiyat barpo etish jarayonlarida yurtimizning har bir fuqarosi, shuningdek keksalarning ham ijtimoiy faolligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki shaxs-ijtimoiy siyosiy islohotlarning asosiy maqsadi, mezoni va omilidir. SHu bois shaxs faoliyatning, faoliyat esa, o’z navbatida, fuqarolik jamiyatining taraqqiyot tayanchiga aylanmoqda.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi tarixan insoniyat taraqqiyotining har bir davr mutafakirlarining aql-idrok, erkinlik, farovonlik vaadolat, qonun ustuvorligi, shaxs erkinligi, ma’naviy va ma’rifat ustuvorligi hukm suradigan ideal ijtimoiy tuzum modelini yaratish yo’lidagi intilishlaridir.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish hamisha u yoki bu tarzda davlatni takomillashtirish, huquq va qonun rolini oshirish muammolari va insonlarning siyosiy jihatdan ishtirok etishi bilan birga jamiyatda sog’lom turmush tarzi, aholining barcha qatlamlari ayniqsa, keksalarni har taraflama muhofazasi bog’liqidir. Unda o’z xususiy manfaatlariga mutanosib ravishda uyushgan individlar bir paytning o’zida davlat hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etuvchi fuqarolar sifatida maydonga chiqadilar.

Bunda har bir fuqaro jamiyatning mustaqil, erkin shaxsi darajasiga yetishi shart bo’lib qoladi. Buning konstitutsion, huquqiy asoslari yaratiladi va kafolatlanadi. Bu jarayonlarni to’la amalga oshirish har bir shaxsdan yuksak siyosiy ong, madaniyatni talab etadi. Qonunlarni bilish va unga amal qilish fuqarolik jamiyatining mezoniga aylanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar har bir keksa ongi va tafakkurida, faoliyatida muhim o’zgarishlar bo’lishiga shart-sharoit tayyorladi. Bu imkoniyatdan foydalanishda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg’ularining qay darajada rivojlanganligi shu bilan birga siyosiy madaniyat, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, yuksak ma’naviyat, sog’lom turmush tarzi, jismoniy barkamollik, tibbiy gigiena, ruhiy tetiklik, mustahkam sog’lik, ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki, fuqarolik statusi keksa avlodning hayotiy tajribasi fikr qaramligi, tafakkur qulligidan ozod bo'lgan, muayyan iqtisodiy ongga ega, tadbirkorlikka moyil kishilarni shakllantirishda keksalardagi faollilik namunasi taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qiladi. CHunki bozor munosabatlarining takomillasha borishi, jamiyatimizda ro'y berayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, faol, ijodiy va intiluvchan shaxs ehtiyojini kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda keng ko'lamli amalgaga oshirilayotgan "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" kontseptsianing dasturiy asosi xisoblanmish ijtimoiy himoya davlat siyosatining mazmunida qayd etilgan:

- xalqimzning siyosiy yetukligi va ijtimoiy faolligini yanada oshirish;
- davlat va jamiyat qurilishi, boshqaruvi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun siyosiy partiylar va jamoatchilikning rolini oshirish;
- yordamga muhtojlarga beminnat yordam ko'rsata oladigan badavlat kishilar va tashkilotlarning ezgu faoliyatlarini birlashtirish hamda rag'batlantirish;
- ijtimoiy himoya tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish;
- xalqimizning kayfiyat, orzu-istik va intilishlarini yuksaltirish;
- odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilgan intilishlarimizni yanada kengaytirish;
- ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari-ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etim-esir va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etish;
- ijtimoiy siyosatimizning huquqiy asoslarini va qonuniy me'yorlarini yanada takomillashtirish;
- el yurtimizga xizmati ko'p singan, o'gitlari bilan ibrat bo'lib kelayotgan muhtaram fahriyalarimiz va pensionerlarimizning sog'lom va mazmunli umr kechirishi uchun yanada keng ko'lamli sharoitlar yaratib berish fuqarolik jamiyatni taraqqiyoti omili sifatida keksalarimizning har tomonlama faolligini yuzaga keltirishni taqozo etadi¹.

¹ Ijtimoiy himoya yili:mazmun va mohiyat./Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent-2007. 30-bet

Faollik tushunchasi-ongli, ezgu va manfaatli harakatlari majmui sifatida keksalarimizdagi kasb-korijitmoiy faro-vonlik, ruhiy tetiklik, huquqiy bilimdonlik, ma'rifiy va ma'naviy salohiyatlilik, jismoniy bardamlik, tibbiy va salomatlilik darajalarining ko'rsatkichlariga tayangan holda yuzaga keladi.

Keksalar faolligining qayd etilgan mezonlari qay darajada o'z ifodasini topganligini o'rganish yuzasidan olib borilgan izlanishlarimiz quyidagicha bo'ldi.

Izlanishlarimiz sotsiologik tadqiqotlar amaliyotining so'rovnama usuliga tayanib, so'rovnomaga Farg'ona vodiysining Andijon va Farg'ona viloyatlari shahar hamda rayonlarida yashovchi 60-74 yoshli keksalarimiz jalb etildi.(1- ilovaga qaralsin).

So'rovnomaning birinchi savoli respondentlarning jinsini, ikkinchisi ularning yoshlарини aniqlashga qaratildi.

Uchinchi savolimiz respondentlarimiz pentsiyagacha qanday kasb-kor qilganliklarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ular tomonidan belgilangan javoblar mazmunidan ayon bo'lishicha keksalarimiz pensiyagacha jami 662 nafar erkaklarning 179 nafari, ayollarning jami 1005 tasidan 177 nafari "ishchi", erkaklardan 105 nafari va ayollarning 93 nafari "xizmatchi", 179 nafar erkak va 387 nafar ayol "dehqon" chilik bilan shug'ullanganlar. Erkaklarning 117 nafari va ayollarning 193 nafari, "ziyoli", 82 nafar erkak va 155 nafar ayollar "hunarmand" chilik qilganlar.

To'rtinchi savolimiz keksalarimizning ijtimoiy himoyalan-ganlik darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda 550 nafar keksa erkaklar va 848 nafar keksa ayollar yosha doir davlat pensiyasi bilan himoyalangan.

SHulardan 22 nafar "erkak va 32 nafar ayol" "nogironlik pensiyasi, 48 nafar erkak va 59 nafar ayollar vaqtinchalik pensiya", 39 nafar erkak va 28 nafar ayollar "himoyaga muhtoj" ligini bildirgan bo'lsalar, 13 nafar erkak va 28 nafar ayollarimiz o'zining ijtimoiy himoyalanishi lozimligini aytolmadi" lar. Javoblarda qayd etilgan 39 nafar erkak va 28 nafar ayollarning ijtimoiy himoyaga muhtojlik holati hamda 13 nafar erkak va 28 nafar ayollarning ijtimoiy himoya davlat siyosatidan bexabarligi bu borada mutasaddi muassasalarning eng avvalo davlat

hokimi-yati,mahalliy fuqarolarning o’zini –o’zi boshqarish organlarining O’zbekiston faxriyalarini ijtimoiy qo’llab –quvvatlash jamg’armasi 1 tizimidagi ijro intizomining ba’zi xudud-lardagi “jonkuyarliklari” ko’rinishidan dalolat beradi.

Beshinchi savolimiz; keksalarimizdagi ruhiy-hissiy holatni o’rganishdan iborat bo’lib, ”bezovtalik” ni erkaklardan 117 nafari va ayollardan 473 nafari, jahldorlikni 86 nafar erkak va ayollardan 215 nafari, “xotirjamlikni” 385 nafar erkak va 278 nafar ayol, “xushchaqchaqlik”ni 35 nafar erkak, va 78 nafar ayol, o’z “kayfiyatini tez o’zgaruvchanligi”ni his qilishlari aniqlandi.

Keksalarda siyosiy-huquqiy bilimdonlikni aniqlashga qaratilgan. Oltinchi savolimizga javoblar mazmuni quyidagi ko’rinishda bo’ldi: “siyosi-huquqiy yangiliklarga qiziqa man” 230 nafar erkak va 119 nafar ayol, “o’z huquqimni himoya qila olaman” 116 nafar erkak va 86 nafar ayol, “huquqiy madadga ehtiyoj sezaman” 28 nafar erkak va 211 nafar ayol, “bilmadim” 170 nafar erkak va 289 nafar ayol. “siyosatga qiziqmay man” 118 nafar erkak va 300 nafar ayollar munosabat bildirdilar.

Bu borada shuni ta’kidlash o’rinligi, izlanishlarimiz davri ayni O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi, viloyat, shahar va rayon xalq deputatlari kengashlari deputatligiga nomzodlarni saralash va saylash jarayonlari qizg’in kechayotgan 2009 yil noyabr va dekabr oylariga monand bo’lib , bu pallada mamlakatimiz fuqarolarining mazkur jarayonlarga keng jalb qilinishida O’zbekiston “Adolat” sotsial- demokratik partiyasi, O’zbekiston “Milliy tiklanish” partiyasi, O’zbekiston tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati liberal-demokratik partiyasi, “Fidokorlar” milliy demokratik parti-yasi, O’zbekiston xalq demokratik partiyalarining siyosiy targ’ibiy faoliyatlari avj olgan chog’da keksalarimizning “xuquqiy madadga ehtiyoj sezishlari”, “siyosiy jarayonlardan bexabarligi” hamda “siyosatga qiziqmasliklari” achinarli holdir.

Yettinchi “kekosalarning ma’rifatlilik daraja”si yuzasidan savolga javoban erkaklardan 63 nafari va 116 nafar ayol oliy ma’lumotli,599 nafar erkak va 889 nafar ayol umumiyl o’rta ta’lim ma’lumotiga ega bir sharoitda 113 nafar erkak va 119 nafar ayolning ma’rifatli bo’lishga vaqt yetmasligi 18 nafar erkak va 75

nafar ayolning bu soxani bilmasligi nomoyon bo'lishi ularning bu yo'nalishga intilmasliklari ma'rifatli jamiyat mezonlariga mos emasligidan dalolatdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifatli jamiyatdagi inson muammosi va shu muammo bilan bevosita bog'liq bo'lgan fozil jamoa qurish, insonga baxt-saodat eshiklarini ochish ikoniyatlarini yaratuvchi ma'rifat davlatimizning diqqat markazida turgan bir sharoitda keksalarimizni ma'rifatga chorlash dolzARB masala ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi.

Keksalarimizning "badiiy-ma'naviy qiziqishlari" xususi-dagi savollarimiz yuzasidan 78 nafar erkak va 102 nafar ayol tasviriy san'atga. 280 nafar erkak va 864 nafar ayollar televideenie hamda radioga, 180 nafar erkak va 233 nafar ayollar teatr va kino san'atga qiziqishlarini bildirdilar.

Bunda badiiy-ma'naviy jixatdan keksalarimizning qiziqishlari bo'yicha to'liq qamrovda ekanliklari diqqatga molikdir. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, keksala-rimizda namoyon bo'lgan bu yuksak ma'naviyat "...insonni ruhan poklanish ,qalban ulg'ayishga chorlaydigan , odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat,iymon e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch,uning barcha qonunlarini mezoni..."¹ sifatida barkamol avlod tarbiyasida ibrat vazifasini bajaradi.

Keksalarning "jismoniy holati" bo'yicha savolimizga erkaklarning 116 nafari va ayollarning 221 nafari "baquvvat" , 59nafar erkak va 330 nafar ayollar kamquvvat, 358 nafar erkaklar va ayollarning 280 nafari "tetik", 133 nafar erkak va 170 nafar ayollar "charchagan" ekanliklarini bildirdilar.

IX savolimiz keksalardagi ovqatlanish me'yorlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, erkaklarning 28 nafari va ayollarning 96 nafari "kam ovqat", erkaklarning 371 nafari va 392 nafar ayollar "to'yib ovqatlanishlari", 191 nafar erkak va 218 nafar ayol "parxezga amal qilishlari",59 nafar erkak va 221 nafar ayol "parxezga rioya qilmasliklari", 13 nafar erkak va 78 nafar ayollar esa "me'yorda ovqatlanishlari"ni ko'rsatdi.

¹ Karimov I.A, Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch Toshkent "Ma'naviyat" 2008 19-bet

Keksalarimizning salomatlik holatini aniqlashga qaratilgan savolimiz yuzasidan olgan javoblarimiz nisbati quyidagicha bo'ldi: jigar kasalligi 23 nafar erkak va 93 nafar ayolda, qon bosimi 48 nafar erkak va 106 nafar ayollarda, asab kasalligi 97 nafar erkak va 111 nafar ayollarda, bo'g'in va turli a'zolardagi muammolar 409 nafar erkak va 564 nafar ayollarda mavjud ekanligi ma'lum bo'ldi. Erkaklardan 85 nafari, ayolardan 131 nafarining sog'lom ekanligi aniqlandi.

Sog'lom tanda-sog' aql" degan xalq naqlining yoshlikdan ongga singdirilganiga qaramay ana shu noyob boylikka nisbatan keksalarimizning e'tibori ko'ngildagiday emasligi so'rovno-maning javoblarida yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Har bir odam sog'lom bo'lsagina,yaxshi mehnat qilishi , ilhom bilan ijod qalamini tebrata olishi,egan luqmasi tanasiga singishi, tiniqib uxlay olishni,o'sha sog' holatni saqlash ham vujudga, ham aqlga, xam ruhga o'z vaqtida madad berib turish zarurligini keksalarimiz bilsalarda, o'z farzandlari uchun,ularning baxt –saodati uchun salomatliklarini ayamaganliklari yana bir bor o'z isbotini topdi.

SHuni alohida ta'kidlash joizki. XXI asrga kelib shaxs salomatligi barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy psixologik omillarga, shaxsning o'ziga ,atrofidagi insonlarga,ular o'rtaqidagi o'zaro muloqotga ko'proq e'tiborni qaratilmoqda. Ana shunday ijtimoiy psixologik omillardan biri bo'lmish oila va undagi muhit,oilani tashkil etuvchilarning o'zaro muomala maromlarini va shunga aloqador ko'nikmalari,yaqin qarindosh- urug'lar, qo'ni-qo'shnilar bilan munosabatlar ham bunda katta rol o'ynaganligi sababli, bu omilning ta'sirini biror lahma ham esdan chiqarmaslik kerak.

Demak, o'zimizning o'zimizga, boshqalarga, atrofdagi yaqinlarimiz, biz uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar, yor-do'stlarimizga munosabatlarimiz, hamkasblarimiz, mehnat faoliyatidagi hamkorlarimizning bizga, bizning salomatligimizga ko'rsatishi mumkin bo'lgan ham ijobiy hamda ba'zan salbiy ta'sirlarini doimo yodda tutish darkordir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keksa faolligini ta'minlovchi:
-xulq –atvorda ijobiy sifatlarning ustuvorligi;

- ahloqiy fazilatlar ;
- xayotiy mo'ljallarni to'g'ri tanlanganlik ;
- turmush tarzining me'yordaligi;
- intellektual salohiyatning ustunligi;
- muomala madaniyatining yuqoriligi;
- suygan mashg'uloti bilan shug'ullanishlik;
- ijtimoiy borliqdagi voqeа-hodisalarni to'g'ri, xolis idrok etish;
- tashqi muhit hodisotlariga nisbatan qiziqishning mavjudligi;
- odamlar ichiga tez moslashish – kirishimlilik;
- ijtimoiy foydali ishlarga ixlosmandlik;
- iste'mol madaniyati, al'turizm, empatiya, o'zgalar oldida mas'uliyatni his etish hamda ochiq ko'ngillilikni shakllantirish orqali keksalarimizni ijtimoiy-tibbiy muhofaza qilishga erishishimiz mumkin bo'ladi. Zero, ijtimoiy-tibbiy himoyalangan keksalarimizning faolligi har bir fuqoro erkinligi, haq-huquqi va manfaatlari, davlat hamda jamiyat qurilishidagi ishtiroki bilan o'zaro mushtarak bo'lib mamlakatda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish, insonlarni umummanfaat yo'lida uyushtirishda va ularning pozitsiyalarini namoyon etishlarida kuchli ma'naviy – ruhiy kuch –quvvat manbai bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiga asoslanib rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq umr ko'rish darjasini bu davlatlarda yildan-yilga oshmoqda. Masalan Yaponiyada o'rtacha umr 80-yoshga yaqinlashib qolgan. Bu davlatda eng imtiyozli va eng qadrli kishi sog'lom odam hisoblanadi. Kasal, semiz, chekuvchi, ichuvchi odam esa nafaqat pul ishlab topa oladi, balki ilgari orttirgan boyligini ham yo'kotadi. Bunday jamiyatda kishilar sog'liqlarini qadrlash, saqlash va mustahkamlash haqidagi maslahatlarga qattiq amal qiladilar. O'qib o'rganadilar, o'zlarini va yaqinlarini sog'ligini asrashda bilim va malakaga ega bo'ladilar. Har kuni sog'lig'ini mustahkamlovchi mashqlar bilan shug'ullanadilar, parhez saqlaydilar va tabiiy usullar orqali sog'lig'ini asrashga astoydil harakat qiladilar.

Shu hususda Rim yozuvchisi va faylasufi Seneka eramiz boshlarida "*Odamni donishmandligi uni oqilona aytgan fikrlarida emas, balki u kundalik xayotida qanday yashayotganidadir. Bu joyda eng muhimi mustahkam ong va o'z nafsining xo'jayini bo'lishdir*", degan edi.

Sog'liq, uzoq umr ko'rish muammosi insoniyatni qadim zamonlardan beri bezovta qilib kelmoqda. Bu muammo hozirgi ya'ni sanoat va ilmiy texnikaning jadal rivojlanish hamda insoniyat bilan tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashuvi davrida alohida . ahamiyat kasb etadi. Insoniyat faoliyatida yo'naltiruvchi omil moddiy ishlab chiqarish bo'lган. Xuddi shu muxitdagи faoliyat inson bilan tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarida chuqr ziddiyatlar keltirib chiqarmoqda. Fan va texnikaning inqilobiy muvaffaqiyatlari kutilmagan darajada odamlarni yashash muhitini shuncha tez o'zgartirib yubordiki odam tanasi o'zining tabiiy, irsiy (genetik), ruxiy-jismoniy (psixofiziologik) xususiyatlari bilan bunday sharoitga moslasha olayapti. U tufayli ko'pgina tsivilizatsiya (taraqqiyot) kasalliklari kelib chiqmoqda. Jamiyatning rivojlanishi natijasida ish sharoitini va odamni xayot tarzini o'zgarishi bilan uni sog'ligi ham doimiy o'zgarishda bo'ladi. Rivojlanish sekin kechgan davrlarda odamlarning tashqi muhitga moslashuvi tabiiy ravishda asta-sekinlik bilan biologik evolyutsiya (rivojlanish jarayoni) natijasida kechgan. Odamlarning sog'ligi, kasalliklar va o'lim ijtimoiy-iqtisodiy va sanitар-gigienik omillar, ya'ni asosan tashqi muhitning salbiy ta'siri oqibati bilan borliq bo'lган. Hozirda ahvol jiddiy ravishda o'zgardi. Endilikda esa odamlarning sog'ligi va umri tashqi muhitga, hamda tanasida sodir bo'layotgan ichki biologik jarayonlarga bog'liq bo'lib qoldi.

Odamning uzoq yashashiga nima xalaqit beradi? Keksayish jarayoni qanday sodir bo'ladi? Tabiat odamzodga qancha umr baxsh etgan? Bu savollarga javobni biz izlanishlarimiz xulosasidan kelib chiqib quyidagicha belgiladik: katta shaharlarda yashash, moddiy jihatdan ta'minlanmaslik, asabiy zo'riqish, harakatsizlik, chekish, spirtli ichimliklarga ruju; ichish, bo'ydoq hayot kechirish, tez-tez kasal bo'lish, ortiqcha semizlik (noto'g'ri ovqatlanish) oqibatlari singari omillarni kiritdik.

Tibbiy ma'lumotlarga tayanib odam o'zini sog'lom deb hisoblashi uchun ularda kasallik alomatlari bo'lmasligidan tashqari vazni, tomir urishi, qon bosimi, nafas olishi, tana harorati (36,5*s) me'yorda bo'lishi, katta odamning me'yor vazniga ko'ra bo'yil 170 sm-ga teng bo'lsa uni me'yor vazni shu sondan 100 sonini ayirganda teng ya'nini, 170 sm-ga 70 kg bo'lishi, bo'yil novcha, mushaklari yaxshi rivojlanmagan odamlarda vaznni me'yordan 6-7 kg past bo'lishi, bo'yil past, mushaklari yaxshi rivojlangan odamlarga vaznni me'yordan 6-7 kg ko'p bo'lishi ham me'yor holat hisoblanishi, lekin odam vazni me'yordan 4,5-5 kg ortiqcha bo'lishi kasallik ekanini aniqladik.

Qon bosimi bo'yicha yuqori ko'rsatkichi 110-120 mm, pastki ko'rsatkich 60-80 mm simob ustiniqa teng, tomir urishi bir daqiqada 60-70 ta va nafas olishi esa bir daqiqada 12-16 marotaba bo'lishi, bularga qo'shimcha yana laboragoriya, rentgen, EKG, UZI va boshqa tekshiruv ko'rsatkichlari ham me'yor holatda bo'lishi, bundan tashqari sog'lom odam yoshiga qarab ma'lyum daraja murakkablikdagi jismoniy harakatni ham ma'lyum vaqtda bajara olishi, va shundagina bunday odam o'zini sog'lom hisoblashi mumkinligi, agarda erkaklarda tinch holatda qon tomir urishi minutiga 55 marotaba ursa ayllo, 65 yaxshi, 65-75 o'rta, 75 dan ko'p bo'lsa yomon ekanligini e'tirof etdik. Sog'liq darajasini o'lchash bo'yicha ushbu usullarni qo'llladik va quyidagilarni tavsiya etdik.

- to'rtinchi qavatga sekin ko'tarilganda tinch holatdagiga qaraganda tomir urishi 10-foizga oshsa ayllo, 30-foizga yaxshi, 50-foizdan ko'p oshsa yomon;
- oltinchi qavatga 2-daqiqa mobaynida chiqish va qon tomirining urishini sanash. Agar qon tomirining urishi tinch holatdagidan ikki marotaba oshsa demak ko'rsatgich yomon.
- asta-sekin 20-marotaba o'tirib turiladi keyin yana tomir urishi sanaladi. Agar tomir urishi oldingiga qaraganda 25-foizdan kamga oshsa ko'rsatkich ayllo, 25-50 foizga oshsa yaxshi, 50-75 foizga oshsa o'rtacha, 75-foizdan ko'p oshsa yomon hisoblanadi. Tomir urishini 2-marotaba va undan ko'pga oshishi yurakning kam quvvatligini ko'rsatadi.

- yosh va sog'lom, jismoniy mehnat yoki jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilar uchun. Oldin tomir urishi sanaladi. Keyin tik turib, qo'l belga qo'yiladi. Oyoq uchida yumshoq qilib 30-soniya davomida 60-marotaba pol yuzidan 5-6 sm balandlikga sakrash o'tkaziladi. Keyin yana tomir urishi sanaladi, ya'ni sinovdan oldingi tomir urishidan 25 foiz va undan kamga oshsa ayno, 25-50 foizga oshsa yaxshi, 50-70 foizga oshsa o'rtacha, 75-foizdan oshsa yomon hisoblaniladi.
- yugurib yoki tez qadamlar bilan 12 minutda iloji boricha ko'proq masofani o'tish yaxshi;
- 2400 metrlik masofani qisqa vaqtda o'tish.

2-BOB. 2-bob. O’zbekiston ijtimoiy siyosatida imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ish olib borish masalalari.

2.1. O’zbekistonda nogironlikni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ertangi kun taraqqiyotimizni belgilashda sog’lom avlodni dunyoga keltirish va ularni barkamol insonlar qilib shakllantirish masalasi har qachongidan muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Buning samarasi o’laroq oilada sog’lom avlodni dunyoga keltirish yosh oilalarning jamiyat oldidaga muhim vazifasi ekanligini hamma birdek tushuna boshladi. Zero, sog’lom avlodsiz buyuk kelajakni qurib bo’lmaydi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o’zida sinovdan o’tkazadi. Yaxshilarini o’z bag’rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o’z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang’ich ijtimoiy yo’nalish beradi. O’z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo’shish bilan esa oila jamiyat yo’nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o’z ta’sirini ko’rsatadi. SHuning uchun ham SHarqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo’rg’on hisoblanib kelingan. Xususan, o’zbek oilalarining serildizlik, serbutlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O’zbek-larda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro’zg’or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo’lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. O’zbek oilalari o’zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mexr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi.

O’zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o’rin egallaydi. O’zbekiston hukumati oila masalalariga

davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zR Konstitutsiyasining 63-moddasiga kura, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat xmda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, «Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralar to'g'risida» 1994 y. 22 avg.da farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zR Prezidenti 1998 y.ni «Oila yili» deb e'lon qildi. SHunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'ri-sida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zR Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi.

O'zbekistonda tug'ilish ko'p bo'lgani uchun va aholini talaygina qismini bolalar tashkil etgani uchun onalar va bolalar salomatligi muhofazasi hamisha eng muhim va dolzarb masalalardan bo'lib kelmoqda. Onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini uyushtirish va rivojlantirishda tibbiyot oliy o'quv yurtlarining pediatriya, akusherlik, genikologiya kafedralari, shuningdek ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot institatlari - pediatriya, akusherlik va genikologiya institatlari katta rol o'ynaydi. Onalikni muhofaza qilish va ixtisoslashgan pediatriya yordami ko'rsatuvchi muassasalar ko'paydi. 1995 yilda 109 dan ziyod ayollar konsul'tatsiyalari yoki akusherlik-ginekologiya kabinetlari, 1800 dan ziyod bolalar poliklinikasi ish olib bordi. Kasalxonalarda bolalar uchun ajritilgan o'rinalar soni 50,7 mingtaga yetdi. Keyingi yillarda ayollar konsul'tatsiyalari, tug'riqxonalar, akusherlik-ginekologiya kabinetlardan tashqari, tegishli muassasalarda turmushga aloqador masalalar yuzasidan maslahat

beradigan “Nikoh va Oila” konsul’tatsiyalari va tibbiy-genetik konsul’tatsiyalar ochildi.

Respublikada onalar va bolalar sog’lig’ini muhofaza qilishga keng ahamiyat berildi. “Bolalikdan nogiron bolalar tug’ilishini oldini olish uchun yangi tug’ilgan chaqaloqlarni hamda homilador ayollarda tug’ma va boshqa potologiyani barvaqt aniqlash bo’yicha “Ona va bola skrininggi” Davlat tizimini tashkil etish to’g’risida” (01.04.98y) Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilinganligi bu soha rivojiga salmoqli hissa qo’shdi. Ayollarni o’z vaqtida tibbiy ko’rikdan o’tkazish va sog’lomlashtirish natijasida bolalar o’limi 1000 ta tug’ilgan bolaga nisbatan 1991 yilda 51,4 dan 1999 yilda 20,2ga kamaydi. Onalar o’limi 100 ming tirik tug’ilgan bolaga nisbatan 1991 yilda 65,3 dan 1999 yilda 31,0ga kamaydi.

Onalar va bolalarni muhofaza qilish xizmatini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari uzoq muddatga mo’ljallangan Davlat dasturida “Ona va bola skriningi” (1998), “Sog’lom avlod uchun” (2000), “Ayollar va o’sib kelayotgan avlodlar sog’lig’ini mustahkamlash bo’yicha qo’shimcha tadbirlar to’g’risida”gi (2000) qarorlarda belgilab berildi. O’zbekiston Respublikasida bu tizim ayollar, homiladorlar va emizikli onalar mehnatini muhofaza qilish qonunchiligi, onalar hamda bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, shuningdek akusherlik-ginekologiya va pediatriya yordamini ko’rsatadigan maxsus davolash-profilaktika muassasalari tarmoqlarini yaratishga asoslangan. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so’ng onalar va bolalar sog’lig’i muhofazasiga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar ko’zda tutilgan dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturni amalga oshirish hamda oilaga tegishli muammolarni har tomonlama hal qilish maqsadida 1998 yildan Toshkentda “Oila” ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko’rsata boshladi. Bu markazda O’zbekistonda sog’lom oilani shakllantirish va demografik rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan faoliyat olib boriladi. Davlat tomonidan yosh bolali onalarning ish soatlari cheklanadi, ularga to’liqsiz ish kuni, to’liqsiz ish haftasi, shuningdek, zaruriyatdan kelib chiqib o’zlariga qulay soatlarda yoki uyda ishlashlariga imkoniyat berildi. Har bir ona va bola sog’lig’ini kuzatish, ularga malakali tibbiy yordam ko’rsatish ham davlat zimmasida. Sog’lom avlodni

tarbiyalash maqsadida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tomonidan maktabgacha ta'lim, maktab, internat maktab, bolalarni sog'lomlashtirish komplekslari kabi xil tarmoqlar rivojlantirilmoqda.

Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi 2 asosiy bo'linish: akusherlik-ginekologiya (tug'ishga yordam berish) va bolalarga davolash profilaktika yordam ko'rsatishni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Ayollar maslaxatxonasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining "Ayollar maslaxatxonasi ishini tashkil etish va homilani antinatol muhofazalash" haqidagi 2001 yil 19 mart 100-sonli buyrug'iga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. Mazkur maslaxatxona o'z xududidagi poliklinika, homiladorlikni sog'lomlashtirish muassasalari "Ona va bola skrining" markazi va perinatol markazlar, tibbiy-genetik, shuningdek, "Nikoh va oila" maslaxatxonasi, oilaviy va bolalar poliklinikasi, ko'p tarmoqli kasalxonalarning ixtisoslashtirilgan bo'limlari bilan uzviy bog'langan holda ish olib boriladi.

Onalar va bolalar salomatligi muhofazasi muammolari O'zbekistonda yo'lga qo'yilgan onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishning yagona tizimi bo'lib, u bosqima-bosqich amalga oshiriladi.

- Homiladorlik va farzand tug'ilishi vaqtida ona hamda bola salomatligini nazorat qilish, viloyatlardagi tug'ruq komplekslarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni yuqori malakali mutaxassislari bilan ta'minlash;
- tug'ish yoshidagi ayollarni chuqur tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularda mavjud bo'lgan kasalliklarni vaqtida aniqlash va dispanser nazoratiga olish,
- sog'lomlashtirish, nosog'lom ayollarga kontratseptiv vositalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, juda yosh yoki kattaroq yoshdagi ayollarda istalmagan homiladorlikni oldini olish, tug'ruqlar oralig'ini uzaytirish, chaqaloqlar tug'ilganidan boshlab ona suti bilan boqish, ona-bola birga bo'lishini ta'minlash;

- 1-5 yoshgacha bo’lgan bolalar orasida patronat tizimini yaxshilash, ularni o’z vaqtida rejali jamlash hamda salomatlik ko’rsatkichlarini yaxshilash, maktabgacha tarbiya muassasalarida muntazam tibbiy nazorat o’rnatish tadbirlarini doimiy o’tkazish ishlari amalga oshirildi.

Yoshlar o’rtasida sog’lom oila va nikoh tushunchalarini targ’ib etish, turmush qurayotgan yoshlarning salomatlik holati sog’lom avlod uchun asos ekanligini butun jamoatchilik, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish bo’yicha butun respublikaning barcha shahar va tumanlarida mahalla faollari, aholi va yoshlar o’rtasida ma’ruzalar, suhbatlar, savol-javob kechalari hamda ommaviy-axborot vasitalarida chiqishlar uyushtirilib, ushbu mavzuga bag’ishlangan uslubiy qo’llanma, buklama, risola va plakatlar nashr etildi.

Fuqarolik holatlarini qayd qilish bo’limlari tomonidan nikohdan o’tuvchi yoshlarni sog’lom oila qurishga tayyorlash bo’yicha maxsus kurslar, xududiy poliklinikalarda nikohgacha yoshlarni tibbiy ko’rikdan o’tkazishg hamda yosh oila patronaji tizimini yaxshilash tadbirlari amlaga oshirildi.

Respublikada faoliyat ko’rsatayotgan onalar va bolalarni muhofaza qilish muassasalarining moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. Respublika perinatal markazi, Farg’ona viloyati Beshariq va Quva tumanlari “Ona va bola” markazlari eng zamonaviy tibbiyot asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Yurtning kelajagi yoshlarga bog’liq. Ularning ma’naviy va jismoniy salomatlik darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, mamlakat ravnaqi ham shunchalik yuksaladi. Jussasi sog’, ongi keng qamrovli, tafakkuri yuksak darajali yoshlar yurtimizning kelajagini porloq etuvchilari bo’lishlari turgan gap. SHunday ekan, butun diqqat-e’tibor, bor imkoniyat shunga qaratilmog’i kerak. Prezidentimiz Islom Karimovning “Sog’lom avlodni tarbiyalash barchaning, butun jamiyatning shu yurda yashaydigan har bir insonning asosiy ishi, insoniy burchidir” - degan gaplari qalbimizdan chuqur o’rin olmog’i shart. CHunki mustahkam oila qurgan va oilani ko’z qorachig’i deb bilgan yoshlar tarafidan keljakning eng ilk nuqtasi va mana shu nuqtalardan esa keljak poydevorining dastlabki g’ishtlari qo’yiladi. Mana shu g’ishtlarning qay darajada qo’yilishi, pishib yetilib tovlanishi va Vatan

deb atalgan qutlug', muqaddas qo'rg'onga xizmat qilishi barchamizning, shu jumlandan yosh ota-onalarning ma'naviy, madaniy, ong va tafakkur tushunchalari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Bola salomatligini saqlashning asosiy mezoni, ya'ni bola sog'lom bo'lishi eng avvalo bola tug'ilmasdan oldin homiladorlik tarbiyasi bilan bog'liq. Bu esa homilador ayolning o'zidan ko'ra har taraflama barkamol avlodni ulg'aytirish uchun ongli ravishda sitqidildan qilingan harakatni rejalashtirish va amalga oshirishidan iborat. Avvalo, homila normal rivojlanishida tashqi muhit katta ahamyatga ega. Ya'ni onaning har hil salbiy omillarga e'tibori katta ahamiyatga ega. Homilador ayolni ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishligi homila tarbiyasida katta o'rinn tutadi. Haqiqatdan ham homila qurtagi vujudga kelishi bilanoq, otalik va onalik ruhiyati birlashgan holda materiyaga, ya'ni homila hujayralariga kirib keladi. Bu ruh, eng avvalo, homilaning barcha hujayralariga kirib keladi. Demak, ruh materiyaning rivojlanishi va takomillashishiga yo'l ochadi, imkon beradi. Homila rivojlanishining 3-haftasidan yurak ura boshlab, ruh yurakka o'tadi va shu yerdan materiyani idora qila boshlaydi, muhim va kerakli nazoratni amalga oshiradi. Ulug' alloma Ibn Sino murakkab jarayonni aniq va qat'iy ravishda tushinib yetganligidan, farzandni vujudga keltirish uchun niyat qilingan paytdan homila tarbiyasi boshlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yozilgan satrlar ushbu aytilganlarni yaqqol isbotlaydi: "Homila paytida u juda xursand, kayfiyati baland bo'lmog'i lozim. Qulay va shinam, toza va saranjom sarishta uyda bo'lib, o'g'il bola tug'ilishi haqida o'yplashi shart. Kuchli va jasur kelishgan qomatdor, chaqqon va epchil, quvnoq yigitlarni ko'z oldiga keltirib aloqa qilish va urug' tashlash lozim".

Demak, homila tarbiyasida ya'ni, homila hech qanday shubhasiz tug'ilishida bo'lajak ota-onalarning o'shiqlik, yuksak orzu-niyatlar qanchalik sof, beg'ubor va pishiq bo'lsa ularning, ya'ni homila rivojlanishi har taraflama barkamol, kelajak imkoniyatlari yuqori bo'lgan ruhga ega bo'lgan homila rivojlanadi. Aqliy kamolot qanchalik yuqori bo'lsa, farzandga o'tadigan ruhning takomillashuvi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Yapon olimlarining tekshirish xulosalariga qaraganda,

homila 8-17 haftalarda ko'p axborot qabul qilgan chaqaloq shartsiz reflekslar takomillashgan bo'lib, shartli reflekslarni hosil bo'lishi ham shunchalik tez va mukammal bo'lar ekan. Mana shu jihatlarni hisobga olgan yapon olimlari hozirgi paytda homilaning 3-oylikdan boshlab unga axborot berish mexanizmini ishlab chiqmoqda. SHunisi ahamiyatlici, bu axborotlar dastlab sodda bo'lib, asta-sekinlik bilan murakkablasha boradi.

Demak, homila ona qornidayoq shaxs sifatida shakllantiriladi va bu bilan uning kelajakda iqtidorli inson bo'lib yetishuviga asosli poydevor qo'yiladi. Homilani normal rivojlanishida onaning to'g'ri ovqatlanishi ham katta rol o'ynaydi.

Aqliy faoliyat qanchalik yuqori darajada bo'lsa, farzandga o'tadigan ruhning takomillashuvi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Homilaning 3-hafatasidan yurakning ura boshlashi bilanoq, miya hujayralari paydo bo'lib, ular yurakdagi ruh ta'sirida ko'paya boshlaydi. Miyaning asosiy qismlari shakllanib bo'lgan zahoti ruh yurakdan miyaga o'tadi. Bunday holat homilaning 3-oyida kuzatiladi. Ana endi ruh miyada turib, barcha materiya, ya'ni homila tanasini nazorat qiladi, idora qiladi va rivojlantiradi. Homila rivojining 8-17 haftalik davrida bu hujayralar shunchalik shiddat bilan va tezlik bilan ko'paya boshlaydiki, bu hol fanda "Portlashdan ko'payish" degan nomni olgan. Xuddi mana shu davrda materiyadagi ruh idora va nazorat qilish jihatdan materiya rivojidan orqada qoladi. Ruhning ilgarilanma harakati o'zidan orqada qolayotganini sezgan materiya hujayralari ko'payishdan tormozlanadi. Bu esa tug'ilajak chaqaloqning aqliy imkoniyatlari 50% kamaydi degan so'z. Mana shu salbiy holatni oldini olish bilan chaqaloqning kelajakda buyuk inson bo'lish darajasini 80% saqlab qolishi mumkin. Bunda oddiy tadbirni qo'llash kerak xolos, ya'ni ruhni qo'shimcha axborot bilan ta'minlash lozim. Buning uchun homilaning eshitish a'zolari orqali miya hujayralari, aniqrog'i ularda joylashgan ruh qanchalik ko'p axborot olsa, ularning ko'payishi va takomillashuvi shunchalik yaxshi va sifatli bo'ladi.

Asrimiz boshlarida rus olimi V.M.Bexterov maxsus tekshirishlar asosida kar bolaning ko'r bolaga nisbatan ham jismoniy, ham ruhiy-aqliy jihatdan rivojlanishi

orqada qolishini isbotladi. CHunki eshitish orqali miya retseptorlari – ta'sirini qabul qiluvchi miya po'stlog'i hujayralari ko'rishga nisbatan tezroq, yaxshiroq hamda sifatliroq ta'sirlanadi va qabul qiladi. SHunda homilaning 3 oylik davridanoq eshitish qobiliyatiga ega bo'lisi, yorug'likni esa tug'ilishdan 1 oy o'tgandan keyin sezal boshlashi ham Olloh tomonidan bekorga ato etilmaganidan dalolat beradi. Homilaga ta'sir qilish uni ona qornidayoq tarbiyalashi xorij olimlari bir qancha tajribalarda kuzatgan. Amerikalik olim-shifokor Breid Logen ona yuragi o'rnini, uning maromiyligi va tezligini magnit lentasiga quvnoqlik kayfiyati beradigan tarzda yozib olib, ona qorni orqali homilaga muntazam ravishda eshittirgan.

Moskvada tashkil etilgan “Sog'lom bolalarni shakllantirish” labaratoriysi boshlig'i M.Lazarev quyidagi tajribani o'tkazdi. U homilali ayolga ona allasini o'rganib, har kuni soat 8 °° da kuylash lozimligini uqtirdi. Bir necha o'n kunlar shunday qilindi. Kunlarning birida alla aytishi lozim bo'lgan vaqtida yosh homilador ona alla aytishni unitib qo'ydi. SHu paytda 8 °° homila “jahl” bilan ona qornida shunday bezovtalanibdiki, ona bundan o'zini juda nohush sezibdi. Ona allasini aytishi bilan homila ham tinchlanibdi. Hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlarda homila tarbiyasiga musiqa bilan ta'sir etishga katta e'tibor beriladi. SHuning uchun homilani rivojlanishining tez va sekin, mukammal va takomillashgan bo'lishi ko'p jihatdan onaga bog'liq.

Homila 3 oylik bo'lgandan boshlab eshitadi. Onasining yuragiga qulq soladi. Ona yuragi bezovtalanganida, nohush kayfiyatda bo'lganida, iztirob chekkanida homila ham bezovtalanadi, yurak urishi ham tezlashadi. SHunga ko'ra ijobjiy his-tuyg'ulardan entikish, quvonish, zavqlanishi homila miya po'stloq qismining rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi va aksincha. Homilaning 3 oylik davridan boshlab onaning ovoz chiqarib kitob o'qishi, she'r va dostonlar aytishi yoki eshitishi, aqliy mehnat bilan shug'ullanayotganda lablari bilan pichirlashi homila miya po'stloq qismidagi aqlga mas'ul hujayralar sonining ko'payishiga kuchli turtki bo'ladi. CHunki homilador ayol musiqadan qanchalik zavqlansa, she'rlar eshitishdan yoki ovoz chiqarib o'qishdan quvonsa, shod bo'lsa, his-

hayajonga toshib entiksa, homila miya po'stlog'i hujayralari ham shunchalik ta'sirlanadi, aqliy mashg'ulotlardan shunchalik bahra oladi. Natijada miya po'stlog'i hujayralariko'payib, ham takomillashadi. Ona qornidayoq shunday tarbiya olgan chaqaloqning zakovati, zehni boshqa chaqaloqlarnikiga nisbatan yuqori darajada bo'ladi. Tibbiyotda o'o'z isbotini topgan ana shunday dalillardan kelib chiqadigan xulosa bitta: aqlan va jismonan rivojlangan chaqaloq tug'ilishi uchun oila eng birinchi navbatda bekami-ko'st bo'lmos'i shart. Agar shunday qilinsa, ona jamiyat oldidagi o'z vazifasini uddalagan bo'ladi.

Ona suti bilan katta bo'lgan bola o'z tengqurlari orasida jismoniy va aqliy jihatdan ajralib turadi. Bolani ona suti bilan boqqan onalarda kamqonlik kam kuzatiladi. Mustaqilligimizdan so'ng yangi tug'ilgan chaqaloqlarni sog'lom bo'lishligi uchun ona suti bilan boqish va buning uchun ona sutining qanchalik go'dak uchun zarurligi, uning sog'lom rivojlanishi uchun eng ahamiyatli ekanligi haqida emizikli onalarga tushintirish ishlari olib borish yo'lga qo'yilgan. Onalarga ona sutini sun'iy oziqqa nisbatan qanchalik afzalligi chaqaloqni butun organizmiga ta'siri hamda onaning o'ziga qanday ta'sir qilishi va ona sutini bola uchun Olloh tomonidan berilgan eng ulug' ne'mat ekanligini onalar ongiga singdiriladi mustaqillikdan so'ng chaqaloqni faqat ko'krak suti bilan ta'minlashga juda katta e'tibor berilmoqda. CHunki ko'krak suti bilan rivojlangan bola turli xil yuqumli kasallikkarga nisbatan chidamli, ruhan tetik, jismonan sog'lom, yaqinlariga, otonasiga va vataniga mehr-muhabbatli tuyg'ulari rivojlanadi. Barcha ijobiy hislatlari yuksak darajada rivojlanadi. Sun'iy oziq bilan oziqlantirish esa, bir qancha kamchiliklarga olib keladi. SHuni ta'kidlash kerakki, sun'iy sut bilan boqilgan bolalar o'rtasida o'pka yallig'lanishi 4 barobar ortiqligi va bunda o'lim ham shunchalik ko'p bo'lishligi 1990 yillardayoq aniqlandi va o'z isbotini topgan edi.

1991 yildan boshlab Umumjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va YuNISEF tug'riqxonalarda ona suti bilan boqishni keng targ'ib qilmoqda. Ona sutida ilon zahrining kuchini qirqib, kesib tashlaydigan ziddi zahar borligini ona bilgan. Ammo, biz yangi zamon odamlari ona sutining mano shu xususiyatini unitib,

qo'yilgan balki bilmaslik pand beradi. Agar bilganida sun'iy sut bilan oziqlantirilgan boallar orasida ich ketar(dizenteriya) kasalliklaridan o'lim 14 barobar ko'p ekanligi anqlangan. Hozirgi paytda o'z isbotini topgan dalilni alohida ta'kidlash lozim. Ona suti bilan bolani to'ydarash birdaniga 3ta vazifani bekamu-ko'st bajaradi:

- 1) bolani to'liq ovqatlantirish;
- 2) bolaning sog'lig'ini ta'minlash;
- 3) bolaning kelajagi yaxshi bo'lishiga kafolat.

Mana shu uch vazifaning amalga oshirilishi esa sog'lom avlod bo'lishning garovidir.

Hozirda Respublikamizda ona suti bilan bolalarni erkin boqish bo'yicha ma'rifiy ishlar keng yo'lga qo'yilgan. SHuni ham ta'ikdash kerakki mustaqillikdan ilgari, ya'ni 1967-68 yillarda bolani oziqlantirish xususida noto'g'ri g'oyalar surilgan. Yangi tug'ilgan bolaga ona sutini 5-6 kunlari berish kerak degan G'arb tabobati tavsiyasi bo'lgan. Bu paytda ona o'z bolasini emizishga madorsiz, kamquvvat, shuning uchun orom olishi kerak, deb o'rganilgan. Mana shu muddat ichida chaqaloq boshqa onalardan sog'ib olingan sut bilan boqilar, ona esa ko'kragida yig'ilib qolgan sutini shisha idishga sog'ib berardi.

Ko'pgina onalar bu tartib jabrini tortishgan. Ming-minglab chaqaloqlar donor sutidan qoniqmay chirqillab yotaverishgan. Bizdagi shifokorlar ham SHarq tabobatidagi taraqqiyot qonunlariga mos ko'rsatmalarni nazar-pisand qilmay, uning ilg'or qarashlarini anglamay, o'ta teskari targ'ib qilinaverdi.

Respublikamiz istiqlol qadamlarini tashlay boshlagan kundanoq ona sutini berish haqida targ'ib ishlari olib borilishiga qaramay, hamon o'zgarishlar kam. Buning isboti sifatida quyidagi misolni e'tiborga olaylik. Toshketdagi homila va homiladorlik holatini o'rganuvchi perinatol markaz chaqaloqlarni ko'krak suti bilan oziqlantirishning 2000 yildagi mavjud ahvolini o'rgandi. Bunda shu narsa qayd etildiki, farzandini dastlabki 6 oy mobaynida istisnosiz, faqat ko'krak suti bilan boqqan onalar faqat 2-3 % ni tashkil qilgan. Bolalarni sun'iy ovqatlantirishga da'vat etayotganlardan 52%i mahalliy pediatrlar, ya'ni bolalar vrachlari, 30%i

qo’ni-qo’shnilar, 19%i qaynonalar ekan. SHunisi achinarlik, to’liq sun’iy ovqatlantirishning 100%i kasallanib, ularni 96% foizi davolanishga majbur bo’lishgan. Vatanimiz mustaqil bo’lganidan beri ona sutining bola uchun, Vatan uchun nechog’lik katta ahamiyati to’g’risida ommaviy axborot vositalarida bong urayotgan, chaqaloqqa birinchi kundanoq, oziz va ko’krak suti berish tartib qilinayotgan Toshkentda ahvol shunday bo’lsa bolalar shifokorining 52 foizi bolani sun’iy ovqatlantirishga da’vat etayotgan bo’lsa, chekka qishloqlarda ahvol bundan yaxshi bo’lishi qiyin. Bunday hollar tafakkur olami keng va uzoqni ko’zlaydigan har bir insonni o’ylantirishi turgan gap.

Prezidentimizning 2000 yilni “Sog’lom avlod yili”, 2001 yilni “Onalar va bolalar yili” deb e’lon qilinganligini haqiqiy mazmunini tushinishimiz kerak. Hozirda bolani ona suti bilan emas, balki sun’iy sut bilan oziqlantirish ommaviy tus olmoqda, lekin buning oqibati qanday salbiy oqibatga olib kelishi unitib qo’ymoqda. Bu hol jahon miqyosida, balki O’zbekistonda ham udum sifatida odatiy holga aylanmoqda.

Hozirgi kunda ona o’zining rasmiy majburiyatini ancha unitib qo’ymoqda. U o’z suti bilan bola boqishni har xil fabrikalar, korxonalar, firmalar ixtiyoriga tashlab qo’yib, o’zini taraqqiylasha borganidan faxrlanadi. Xatto buni o’ziga berilgan katta imtiyoz safatida qabul qilmoqda.

Bugungi kunga kelib ona sutini o’rnini bosishga mo’ljallangan sun’iy sut ishlab chiqarish korxonalari bunyod etilmoqda. Natijada bolani sun’iy ovqatlantirish maxsulotlari afzal sanalib ona sutidan benasib bolalar soni ham tobora kamayib bormoqda. Sun’iy suti borligi tufayli xotirjam onalar o’rtasida gipolaktiya (ona sutining kamayishi) yoki ko’krak bezidan sutning mutlaqo ajralmay qolishi hollari kuzatilmoqda.

Bugungi kunga kelib sun’iy sut bilan oziqlantirilgan bolalar katta bo’lganida yurak, qon tomir kasalliklari, gipertoniya, skleroz, qand kasalligining insulinga tobe shakli, ko’rish o’tkirligining pasayishi, ruhiy kasalliklarga duchor bo’lishi ona suti bilan to’ydirib boqilgan o’z tengdoshlariga nisbatan 30-40 marta ko’proq qayd etilmoqda. Bu esa tibbiyotimizni dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda.

Sun'iy sut bilan boqilgan qizlar balog'atga yetib ona bo'lganlarida ularning 70 foizidan ortiqrog'ida me'yoriy vazindan ancha kam bolalar tug'iladi va ularning barchasida kamqonlik aniqlandi. Ma'lumki, dunyoda har yili 12 million bola bo'lsa, ularning 55 foizining vazni kam, 20-25 foizida kamqonlik kuzatiladi. Agar bola 2,5kg bo'lsa, (me'yorda 3.50g) bunday bolalarning nobut bo'lishi ehtimoli 4-5 barobar ortadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, sun'iy sut bilan boqilgan qizlarda bepushtlik ko'proq uchrar ekan. SHuning uchun bolani sog'lom unib o'sishida onalarning ahamiyati juda katta. Bundan tashqari bolani sog'lom, har xil infektsiyadan saqlash uchun ona shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilishi, ya'ni har kuni sut bezini 2-3 marta yuvish, kiyimlarini ozoda tutishi kerak. Bundan tashqari bolani sog'lom rivojlanishida ayniqsa, mustaqillik davridan keyin kasalxona ichi infektsiyasiga qarshi kurashish va sanitariya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmoqda. SHuni ham aytish joizki, yangi tug'ilgan bola har xil yuqumli kasalliklarga juda beriluvchan bo'ladi. Bolani bu yuqumli kasalliklarga chalinmasligi uchun o'z vaqtida emlash katta ahamiyatga ega. CHunki emlanmagan bolalarda yuqumli kasalliklarga beriluvchanlik xavfi juda yuqori bo'ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqillik tufayli bolalar salomatligiga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va bunda oilaning oldiga ulkan vazifalar qo'yila boshladi.

Ma'lumki, O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish va oilalar integratsiyasi muhim o'rinni egallaydi. SHunga qaramay, mazkur muammo hanuzgacha aniq maqsadli yechimlarni kutib turgan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Respublikamizda umumiy nogironlar soni 799708 kishi (ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni bilan aniqlangan) ni tashkil etsa, jumladan, hozirgi kunda 130000 dan ortiq nogiron bolasi bor oilalar mavjud³. Bu oilalarning ayrimlarida bittadan ortiq nogiron bola bor, demakdir.

Oilalarda salomatlik darajasi va oiladagi ijtimoiy-gigienik holatni ilmiy tahlil qilish qay darajada dolzarb bo'lsa, nogiron bolani tarbiyalayotgan oila salomatligi, ijtimoiy-tibbiy-gigienik holati, nogiron bolalarni sog'lomlashtirish, reabilitatsiya qilish hamda korreksion-pedagogik ishlarni oilada takomillashtirish ham bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan yana biri, aynan ta'lim bilan qamrab olinmagan nogiron bolalarni ta'lim va tarbiya bilan qamrab olish, ularning bunday jamiyatda ajrab qolishining ob'ektiv hamda sub'ektiv sabablarini aniqlash va muammolarni bartaraf etishdir. Halq ta'limi vazirligining tasarrufida bugungi kunda respublikamizda 84 ta maxsus mакtab va mакtab internatlar faoliyat yuritadi. Ana shu mакtab- internat va maxsus maktablarda hammasi bo'lib 19483 nafar bola tahsil oladi. Davlat qonunchiligi ota-onalar hohish-istiklalini inobatga olgan holda, bolalarni uyda ta'lim-tarbiyaga jalb etish haqida ham bosh qotiradi., xususan, 9 mingdan ziyod nogiron bolalar individual uy ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim oladi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2004 yildagi aholi soniga ko'ra ijtimoiy himoya organlari tomonidan 5 ta "Muruvvat" uylarida 1400 ta bola panoh topganligi hamda ular og'ir ruhiy-asab kasalliklariga chalinganigi aniqlandi.

³ Оила – ижтимоий химоя омиллари. Toshkent, 2007. 35-бет.

So'nggi yillarda markaziy nerv sistemasida perinatal shikstlanish belgilar bilan tug'ilayotgan bolalar soni ortmoqda. Markaziy nerv sistemasining shikastlanishi o'z ichiga turli patologik xolatlarni, ya'ni homiladorlik davrida turli zararli faktorlar ta'sirida kelib chiquvchi patologik holatlar tug'ish va undan keyingi ilk go'daklik davridagi patologik holatlarni oladi. Turli tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, 83,3 % uchrayotgan holatlar aynan PEP (perinatal entsefalopatiya)ga oid kasalliklardir. Bu bolada tayanch-harakat sistemasi kasalliklarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Miya perinatal patologiyasi mavjud bo'lgan bolalarda miyasi rivojlangan sari buzilish belgilari yuzaga keladi yoki tayanch-harakat analizatorlari turli bo'limlari rivojlanishining buzilishlari, shuningdek, ruhiy, nutqning rtvojlanishiga qadar va nutqning rivojlangandan keyingi o'zgarishlar paydo bo'ladi. Tayanch-xarakat patologiyasi bor bolalarning asosiy qismini, yani 89 % ni tserebral miya falajiga chalingan bolalar tashkil qiladi. Bola hayotining birinchi yoshida "Bolalar miya falaji" tashxisi faqatgina shunday bolalarga qo'yiladiki, ularning harakatida yaqqol ko'rindigan nuqsonlar, ya'ni muskul tonusining buzilishi, xarakatlanishning chekshanish, patologik reflekslar, g'ayriixtiyoriy zo'rланган harakatlar (giperkinez va tremor), harakat koordinatsiyasining buzilishi va hakozolar kuzatiladi.

Ma'lumki, rivojlanishdagi nuqson vuz bilishlarning barchasi ham chaqaloqlik davrida yuzaga kelavermaydi. Bunday o'zgarishlarning aksariyati kattaroq yoshda aniqlanishi mumkin. Ular ko'pincha asab sistemasining, eshitish va ko'rish a'zolari hamda nutqdagi nuqsonliklar misolida nomoyon bo'ladi. Ilmiy izlanishlardan shu narsa ayon bo'lmoqdaki, rivojlanishida jismoniy va psixik kamchiligi bor bolalarga qancha erta yordam ko'rsatilsa, ulardagi kamchiliklar shuncha tez bartaraf etiladi, yoki korrektsiyalanadi. Bunday bolalar yosh organizmining potentsial qobiliyatlariga taniladi.

Albatta, oilada tinchlik va salomatlik bu bir saodat, agar oilada farzand salomatligi bilan bog'liq muammo yuz bersa, ota-onas mushkul ahvolga tushadi. Tug'ilgan bolada aniq fisiologik yoki aqliy zaiflik bo'lsa, ona uning uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yarata oladigan birinchi inson va faqatgina chidam,

tushunish, bolaga mehr, muhabbat bilan unga yordam bera oladi, shu bilan birgalikda uni kelajakda ta’limga yo’naltira oladi va eng muhimi uning “Muruvvat” uyiga tushib qolmasligiga vijdonan erisha oladi. Lekin, buning uchun u o’z ustida ishlashi va bolasini chuqur o’rganishi zarur. Ota-onal tushkunlik holatiga tushganda esa har qanday faoliyatga qisqa muddatga bo’lsa ham qiziqishi so’nadi. Odamlardan qochishga, eski qadronlari bilan aloqani uzishga harakat qilishadi. Aynan shunday holatda onalarga kasal bola bilan qanday muloqot qilish uni boshqarish masalasida yordam kerak bo’ladi. Bugungi kunda nogiron bolasi bor oilalarni jamiyatimiz, mahalla a’zolari tomonidan qo’llab-quvvatlanishi juda katta ahamiyatga ega. CHunki, nogiron farzandi bor oilalarning o’ziga xos ruhiy-emotsional kechinmalari borki, bu oilalar ko’p hollarda tabiiyki, nogiron farzandlari tufayli o’z ish joylaridan ajraladilar yoki voz kechadilar, jamoat ishlarida faol ishtirok eta olmasliklari, o’zlarini chetga olib ajralib qolishlariga olib keladi. Bundan tashqari, ko’p ota-onalar nogiron farzandlari borligini yashirishga harakat qiladilar. Ba’zi hollarda esa farzandlari maktab yoshiga yetgach, maktabga yubormaslik holatlari ham uchrab turadi. Natijada, bunday bolalar hech qanday ta’lim bilan qamrab olinmaydi. Yana kundalik hayotda nogiron bolalaridan umuman voz kechib, “Muruvvat” uylariga yoki mehribonlik uylariga topshirib yuboradigan oilalarni ham uchratamiz. Aslida nogiron bola jamiyatning to’laqonli a’zosi sifatida boshqa bolalar kabi ta’lim olishga to’la haqli ekan, bu borada ayniqsa ota-onalar manfaatdor ekanliklarini har lahma yoddan chiqarmaslik juda muhimdir. Bunday oilalarga har tomonlama yordam berish lozim. Ayniqsa, nogiron farzandi bor ota-onaga uyidan uzoq bo’lmagan joyda ish o’rinlari tashkil etib berilsa, bizningcha bunday oilalarga ko’rsatilgan eng muruvvatli yordam hisoblanar va bu hol nogiron bolaning muruvvat uyiga tushib qolmasligini o’ziga xos tarzda ta’minalashga yordam beradigan muhim omillardan biri bo’lar edi.

Alovida yordaga muhtoj bolalarni ta’limga yo’naltirishda eng avvalo, ota-onalar mas’ul ekanlar ular nogiron farzandlari bilan alovida tarzda muloqot o’rnata olishlari, nogiron bolani tarbiyalash usullaridan bohabar bo’lishlari, bolani

maktabga tayyorlash va o'qish jarayonida unga ko'maklashishning eng oddiy ko'nikmalarini bilishlari lozim.

Respublikamizda nogironlikni erta aniqlash va ularni maktabga tayyorlashda bolalarni maktab yoshigacha bo'lgan muassasalarga joylashtarishga alohida ahamiyat berish darkor. Bu yuqorida ta'kidlanganidek, bolalardagi nuqsonlarni erta aniqlanishiga yordam beradi. Respublikamizda 73 % ota-onalar farzandlarini bolalar bog'chalariga joylashtirmasligi aniqlangan. Halq ta'limi vazirligining ma'lumotilan ko'ra, faqatgina 21 % oilalar farzandlarini bolalar bog'chalariga joylar ekanlar. Agar mavjud bolalar bog'chalari tarkibida maxsus guruhlar tashkil etilsa, bu albatta, nogiron bolalarni sog'lom bolalar bilan integratsiyalashuvining eng muvaffaqiyatli va yagona yo'li hisoblanar edi. Bunday bolalar tafakkuri shakllanishining ilk davridan boshlab o'zlarini (stigma) boshqalardan olib qochmaslikka va erkin his qilgan holda ta'lim va tarbiyaga ko'nikma hosil qilib borar edilar. Bunday bolalarning ota-onalari bilan muloqot o'rnatib, farzandlaridagi o'zlashtirishni birgalikda rivojlantirish hamda ularning korrektions-pedagogik savodxonligini oshirib borishga imkon tug'ilari edi. Nogiron bolalarda ham maktab yoshiga yetgach boshqa bolalar kabi oilalardan ajralmagan holda umumiy maktabda o'qish istagi paydo bo'lishi muqarrar.

Nogironlik masalasi bo'yicha Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar nogironligini oldini olish va ularni ta'limga yo'naltirish uchun eng avvalo, ularning ota-onalariri savodxonligini oshirishidan boshlash darkor. Buni amalga oshirish uchun esa, aniq maqsadli mexanizmni yaratish kerak. Inklyuziv ta'lim deb nom olgan ta'lim sohasi takomillashib ketgan taqdirda ham, nogiron farzandi bor ota-onalarning savodxonligini oshirmsasdan turib hech qanday yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi.

Har qanday holatda ham shuni ta'kidlab o'tish kerakki, jamiyat rivojlanishi bilan muammolar ham rivojlanib boraveradi. Bu muammolarni yechish uchun iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik yondashuv kerak bo'ladi. Ushbu muammoni yechishda alohida yondashuv bilan birgalikda mакtab yoshigacha bo'lган

muassasalar tarkibida maxsus guruhlarni tashkillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Bizning oldimizda turgan eng muhim masala – imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ma'naviy kamol topishi uchun tarbiyaviy tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borish, ulardagi u yoki bu nuqsonni bartaraf etishga doir korreksion-pedagogik ko'rsatmalarni muntazam qo'llash maqsmadga muvofiqdir.

2.2. Imkoniyati cheklangan jarayonida ijtimoiy ish xodimining maqsad va vazifalari.

Ijtimoiy ish xodimi maslaxat berish jarayonida ota-onalar bilan bir necha marta alokada buladi: birinchi marta uchrashganda kiska suxbat tarzda, bolaning rivojlanishi tarixi buyicha butun tafsilotlari bilan batafsil suxbatlashilganda va oxirgi marta tekshiruv natijalari buyicha yakunlovchi suxbatda. Bu uchrashuvlarning xar biri umumiy va maxsus vazifalarga ega bulib, ularning utkazishning uz xususiyatlari mavjud. Ijtimoiy ish xodimining ota-onalar bilan, bolaning karindoshlari, o'kituvchilari, tarbiyachilari va yakin kishilari bilan olib boriladigan ishlarni xam o'ziga xos xususiyatga egadir. Psixolog-maslaxatchiga bola tarbiyasi buyicha murojaat kilgan shaxslar bilan uzaro munosabatning ba'zi umumiy tomonlariga tuxtalib utamiz.

Maslaxat berishda muvaffakiyatning dastlabki majburiy sharti tekshirilayotgan bolaning ota-onasi (yoki ukituvchilari) bilan psixolog ishonchli va ochikchasiga munosabatni yarata olish kerak. Ishonchli munosabat aslida maslaxat bilan murojaat kilgan kishilarning bolaga nisbatan xavotirlanishlarini tan olish va xurmat kilish yotadi. Maslaxatchining ota-onalarga bolaning kiyinchiliklarini yukotishga chin dildan kizikuvchi sifatida, uni tushunuvchi va chukur biluvchi shaxs sifatida munosabatda bulishi ular bilan ishonchli aloka urnatishda juda xam yordam beradi. Bunday munosabat ota-onalarning xarakatlarini tugridan-tugri yoki kinoya bilan tankid kilish, ularning pedagogik chukur bilimga egaligi xakida shubxalanishga karama-karshidir. Teskari alokaning bu kabi barcha zarur turlari tekshiruv unda xam maxsus shaklda foydalanishni talab kildi. Dastlabki uchrashuvda xarakatini kullab-kuvvatlamaslik xakidagi xar kanday lukma xam,

ularda kuchli ximoya aktsiyalarini vujudga keltiradi va muammoni xap tomonlama ochikchasiga muxokama kiladigan yullarni yopib kuyadi.

SHu bilan birga ota-onalar bilan birinchi va ikkinchi uchrashuvlarda maslaxat berishining maksad vazifalarini tushuntirishga e'tibor berish zarur. SHuni xisobga olish zarurki, respublikamiz sharoitida, psixologik xizmat endigina tashkil topayapti va axolining amalda psixologik yordam olish tajribasi yuk, kupchilik ota-onalarda psixologik xizmat xakida notugri tasavvurlar paydo bulgan (maslaxat berish jarayonining murakkabligi va kup vaktni olganligi uchun notugri baxolash, tayyor ktashxisk (diagnoz) olishga extiyoj va boshkalar). SHuning uchun ota-onalar bilan dastlabki uchrashuvlardagi muxim vazifalardan biri bola muammolarini birgalikda va xar tomonlama taxlil kilishga tayyorlikni (ustanovkani) shakllantirish, tekshiruvning maksadlarini, maslaxat berish ishining vifalarini tushuntirishdan iborat. Bolaga boshka mutaxassislarga maslaxat uchun yullanma berish xam maxsus tushuntirishni talab kiladi. Maslaxat berish ishining xar bir boskichdan psixolog muammoni xar tomonlama karab chikishi va uzining kizikarli munosabati balan ota-onalarni ogir xissiyotlardan ozod kilishga intilish, muamoning ijobiy tomonlariga e'tiborni karatish, uni xal kilish yollarini faol izlash zarur.

Ota-onalar tuzatish dasturini utkazish jarayonida uchraydigan tusiklar, kiyinchiliklar, asoratlar xakida ogoxlantirilishi lozim. Ularda kiyinchiliklarni xal kilishning koson-sirlik yuli xakida tasavvur paydo kilmasligi kerak, chunki bunday tasavvur psixologik yordam imkoniyatlidan barvakt kungil sovishga olib keladi.

Ijtimoiy ish xodimi ota-onalarni (ukituvchilarni) tekshiruv natijalari tez tayyor bulmasligi xakida ogoxlantirish lozim. Istalgan natijaga erishishda, psixolog uylaganday bulib chikishiga ishontirmasligi xam mumkin, ba'zan birovlarning umidi puchga chikishi xam mumkin. Zaruriyat tugilganda ota-onalarga yoki ukituvchilarga kayta maslaxatlar berish psixologning vazifasiga kiradi. Kupincha uzok psixoterapevtik ishlar va kup martalab uchrashuvlar amalda kullaniladi.

Ijtimoiy ish xodimi xodisani xar tomonlama urganish natijalari xakida utkaziladigan suxbat bir necha maksadni kuzlaydi:

- 1) bola psixik tarakkiyotining umumiy xolati xakida tulik muxokama, aniklangan kiyinchiliklarning sababi, >darajasi, xarakteri xakida shartli oldindan aytib berish;
- 2) kursatiladigan yordamning anik sistemasini yoki maxsus tuzatish dasturini birgalikda ishlab chikarish;
- 3) ota-onalarning bola kiyinchiliklariga munosabatini muxokama kilish;
- 4) keyingi uchrashuvlarni (zaruriyat tugilsa) rejalashtirish.

Kator amerikalik olimlar ota-onalar bilan maslaxatchinng sunggi suxbatida 4 asosiylar boskichni kursatadilar va ularni utkazish buyicha kuyidagicha tavsiflar beriladi. Bir vaktning uzida xam ikkala ota-onalarning suxbat utkazish maksadga muvofik, chunki bu bola xayoti xakida xar tomonlama va tugri ma'lumot olishga yordam beradi, bundan tashkari ota-onalarga bola takdiri uchun umumiy javobgarlikni xis kilish imkonini beradi.

Suxbat boshida bola muammosini, ularni kizikgiruvchi masalalarni erkin, ochikchasiga muxokama kilishga undash zarur. Bola kiyinchiliklarining sabablari, ularni xal ish vositalari, kanday yordam kursatish, bola oldiga kanday maksad kuyish **mumkinligi**, kelajakda nima bilan shutullanishi mumkinligi xakida ularning fikrlarini, tasavvurlarini xam aniklash muxim. Suxbatning ikkinchi boskichida psixologik tekshiruv natijalari bilan tanishtiriladi. Anik, olingan ma'lumotlar bola kiyinchiliklarining xarakteri va darajasi xakidagi notugri tasavvurlarni yengib chikishga yordam beradi. Bola kiyinchiliklari xakida tugri tasavvur xosil kilishga intilish lozim. SHundan sung (uchinchi boskich) xarakatlarning maxsus dasturi muxokama kilinadi. Suxbat sungida ota-onalarning bola muammolariga munosabati muxokama kilinadi va keyingi uchrashuvlar rejalashtiriladi. Suxbat jarayonida ularga nisbatan xurmat, tushunish, ilik munosabatda bulishi muxim. **Suxbatning** maxsuldarligi, ota-onalarning maslaxatchidan olgan tavsiya va ma'lumotlari asosida xarakat kilishlari bilan baxolanadi. Tajribalarning kursatishicha, ota-onalarning u yoki bu anik tarbiyaviy xarakatlarni psixolog-maslaxatchi tomonidan ijobiy baxolash ularning uz-

kuchlariga ishonchini oshiradi. Suxbatgacha ota-onalarda paydo bulgan notugri tasavvurlarni uzgartirishga bir suxbatning uzi yetarli emas. Buning uchun bir necha uchrashuvlar talab kilinadi, Garb davlatlarining psixologlari anik vaziyatlarni, uzaro munosabatlarni muxokama kilishi uchun mijozlarning uylariga borib maslaxat beradilar. SHu bilan birga ota- onalar bilan mashgulotlarning xar xil guruxiy turlari kuprok kullaniladi.

U yoki bu kamchiliklari bor bola, bolaligicha kolishini, uning yoshidagi barcha bolalar singari extiyojlarga egaligini ota-onalarga tushuntirish juda muximdir. Bu yerda notugri tarbiyaning turli shakllari juda zararlidir. Bu bilan boglik ravishda maslaxat berish amaliyotida xar bir muammo buyicha tarakkiyot jarayoni yosh davriga mosligi, uning yetakchi faoliyati va boshkalar xakidagi masalani muxokama kilish zarur. Mavjud kiyinchiliklarni yengishga karatilgan faollik bolaning extiyojlari va kizikishlarini man kilish xisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Ota-onalarga bunday xolatni tushuntirish, bola uchun ogir okibatlarga olib keladigan keng tarkalgan pedagogik xatolarning oldini olish imkonini beradi. (Masalan, kichik maktab ukuvchisi yoki usmirni tengdoshlari bilan uynatmasdan, fakat ukish bilan shugullanishga majburlash).

Ijtimoiy ish xodimi maslaxat berish jarayonida muammoni fakat kmuloxazaga asoslanibk taxlil kilish bilan chegaralanmasligi kerak. Bolaning yakinlaridan, uning uchun kurkish, xavotirlanish xissini yukotish va bir vaktdan bola extiyojlariga sezgirlikni kuchaytirish, uning kiyknchiliklarini chukur tushuntirish pskxologning asosiy vazifasi xisoblanadi. Ijtimoiy ish xodimi ota-onalarda xavotirlanish, aybdorlik, ruxiy sikilish xislari mavjudligini sezgirlik bilan paykash va bu xissiyotlarni ifodalashga ularga imkon berish lozim.

Aybdorlik xissini yukotishga kiyinchiliklarni taxlil kilish yuli bilan yordam berish eng yaxshi yul xisoblanadi. Kasallikning vujudga kelishidan aybdor bulmasalarda,,kasal bolalarning ota-onalaridan yashirin aybdorlik xissi vujudligini nazarda tutish kerak. Ilik, ochikchasiga suxbatlasha olmaydigan psixoterapevtlarga emas, maslaxatchi-psixologlar xam bemorlarning xolatini

yomonlashtirishi mumkin. (Bu fakat bolalarga emas, ularga gamxurlik kiluvchi kattalarga xam tegishlir),

Xar kanday nsixoterapeutik suxbat xam, maslaxatchining ota-onalari bilan suxbat xam bola shaxsini, uning muammolarini xar tomonlama, chukur va tugri tushunishni uz oldiga asosiy maksad kilib kuyadi. Bu bilan boglik ravishda ota-onalar bilan ishlashda kuyidagi tavsiyalar bildiriladi: bolani tekshirish chogida olingen anik natijalarini chukur muxokama kilish- bu kupincha maslaxatchi xulosalariga katta ishonch tugdiradi; ota-onalar anik, tushunarli tilda yozilgan psixologik xulosani kollariga olishlari kerak, yoki xulosa va tavsiyalarni uzlari yozib olishlari mumkin, chunki bu maslaxat natijalarini uylashga, xulosalardan kelib chikib, anik choralar izlashga, ularning tugriligini bolaning keyingi xulk-atvorida tekshirishga imkon beradi.

Ota-onalar guruxlari

Ota-onalar bilan ish olib borishning individual shakllari bilan birja guruxiy shakli ota-onsa guruxlariga raxbarlik kilish xam foydali xisoblanadi. Bolaning ota-onasi shaxslararo mul okotda kiynalishini tan olganlari xolda, ular bunday guruxlar tarkibiga kiritilishi tavsiya etiladi.

Ota-onalar guruxlariga raxbarlik kilish, bola tarakkyotining asosiy dalillarini, ularga mos ravishda munosabatlarning uzgarishni ota-onalar tushunmaganliklarida ota-onalar va bolalar urtasidagi munosabatlarni yaxshilashni uz oldiga maksad kilib kuyadi. Ota-onalar guruxlariga raxbarlik kilish xususiy muammolar, buyicha maslaxat berish shaklida va maxsus ota-onalar treninglari shaklida amalga oshirish mumkin. Zaruriyat tugilganda, ota-onalar uzelarining psixologik muammolarini xal kilishi uchun psixoterapeutik guruxlardagi mashgulotlarga tavsiya etish mumkin, bunday mashgulotlar ommaviy maslaxat berish doirasida keng tarkalgan. Aloxida masalalar buyicha maslaxat berish gurux ayzolari uchun, umumiy bulgan, munozarali muxokama kilish asosida ota-onalar va bolalar urtasidagi munosabatlarni yaxshilashni uz oldiga maksad kilib kuyadi.

Ota-onalar treninglari bola xulk-atvoridagi yashirin ma'noni tushunish asosida ularniq xissiyoti va kechinmalariga ota-onalarnnng sezgirligi oshirishni

uzi oldinga maksad kilib kuyadi. Ota-onalar va bolalar urtasidagi yomon munosabatlarning sababi bolalikda uzlashtirgan tarbiyaning xato illatlar (stereotiplari) bulishi mumkin.

Ota-onalar guruxlarida mashgulotlar utkazish xar xil turda bulsa, bu ishki tashkil etishning kator umumiyligi koidalarini kursatish mumkin. Amerikalik olim, S.Slavson 3 asosiy kismni uz ichiga oladigan. kguruxning dastlabki koidasik tushuichasini kiritadi:

- 1) munozara predmeti- bolalar va ular bilan ota-onalarning uzaro xarakat usullari;
- 2) guruxning xamma a'zolari munozarada erkin ishtirok etish xukukiga egadir;
- 3) munozarani olib boruvchi guruxning xamma a'zolari tomonidan majburiy kabul kilinadigan yagona obruli kishi emas.

Yukorida sanab utilgan koidalarga asoslanib, mijoz-markazlashgan da'volash printsipi asosida tuzilgan ota-onalarga maalaxat berish, bola muammosida markazlashgan printsipidan uzok, lashadi. Maslaxat berish jarayonining markazi fakat bolagagina karatilmasdan, balki bola muammosidan, ota-onalar va bolalar urtasidagi munosabat muammosiga, ota-onalar muammolariga uzgarib turadi, shu bilan birga ota-onalarning uzlarini da'volashni amalga oshiradi. Maslaxatchi bola xulk-atvorining xususiyatlarini ota-onalarga ochib beradi va muammoni xal kilishning ikki karama-karshi usulini bayon kiladi. U yoki bu usulni tanlash ota-onalar xukmiga xavola kilinadi.

Maslaxatchining, ota-onalar guruxlari olib boruvchisining asosiy urni shundan, iboratki, muammoni kuyish, munozaratni rivojlantirish va uni xal kilish uchun gurux a'zolari izidan xama narsani oynaga uxshab aks ettirishi, takrorlashi va tanlab berishi zarur. Boshkacha suzlar bilan aytganda, maslaxatchining roli, kuyilgan muammoli vaziyatlarni xal kilish jarayonida ota-onalarni tugri yulga solishni tashkil etishdan iborat. Ota-onalarda bola tarbiyasi buyicha chukur bilimga egalikni shakllantirishning psixalogik sharoiti bulib, bolalar alokalarini tushunish

va **empatik** mulokat usullarini uzlashtirish zarurligini ota-onalar anglashi xisoblanadi.

Amerikalik psixolog X.Djaynottning fikricha, teng aloka mulokotning 3 asosiy koidasiga asoslanadi. Birinchidan, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy uzgarishni ma'kullahsga intilishlari kerak, xar kanday xolatda xam uni kamsitmaslik, bolada ijobiy kMenk siymoni kullab-kuvatlashdan iborat. Ikkinchidan, bola bilan uning kilgan ishi, bu ishning okibati, vaziyat xakida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi xakida gapirmaslik kerak.

Kattalarning bolalar xaqida fikri, bolaning kelajakdagi takdirga tashxis kuyishga, uning oldindan aytib berishga karatilmaslik kerak. Maktash va tanbex berish **xam** usha koidaga asosan tuzilishi kerak: tayyor baxolash urniga, kilingan xarakatlar va ular natijasini keng yoritib berish kerak, xulosa chikarish va baxo berishni bolaning uziga kuyib berish kerak. Uchinchidan, alaka jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor bulishlari kerak. Bunday xarakat usuli tugridan-tugri kursatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni xal kilish imkoniyatlarni bola oldiga shunday kuyish kerakki, bolaning uzi eng tugrirok usulni tanlashni mustakil amalga oshirsin.

Ota-onalar, ukituvchilar va tarbiyachilar tomonidan bu koidalarni kundalik xayotda ketma-ket amalga oshirilishi da'volash koidalarni tarbiya amaliyotiga kiritishdan boshka narsa emas. Psixodinamik nuktai nazardan ota-onalar guruxlariga rahbarlik kilishning maksadi, ota-onalarni bu koidalardan amalda foydalanish malakasi bilan kurollantirishdan iboratdir. Boshkacha suzlar bilan aytganda, ota-onalar guruxlarining maksuli, ota-onalarni bolaga da'volash munosabatida bulishni urgatishdan iborat.

Xozirgi vaktda chet elda ota-onalar trening guruxlari bolaga maslaxat berish amaliyotida maxsuldor ish shakli sifatida juda ommoviy tus olgan. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, bolaga karatilgan bir butun tuzatish tadbirlari sistemasidan ajratilgan xolda ota-onalar treninglar maslaxat berish jarayonida tuzatish vazifalarini muvaffakkiyatli xal kilishning yetarli sharti bo'la olmaydi.

2.3. Nogiron bolalarni ta’limga jalb qilish etishda ijtimoiy ish xodimning o’rni va ahamiyati.

Inklyuziv ta’lim-bu (nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli) maxsus ta’limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun moslashuvchan va individuallashgan yordam tizimidir. U umumiy ta’lim tuzilishining muhim qismini tashkil qiladi va hamma uchun birdek ta’lim beruvchi oddiy maktablarda olib boriladi.

An’anaviy termin «maxsus ta’lim» nogiron o’quvchilar ta’limini umumtaelim maktabdan tashqarida yoki u bilan bog’liq holda olib boriluvchi tizimni anglatadi.

Inklyuziv ta’lim asosan oddiy sinflarda va o’quvchilarga yaqin bo’lgan oddiy maktablarda olib boriladi. Oddiy sinf muhitidan ajratish, oddiy sinflarda ta’lim olishda qo’shimcha yordam va xizmatlar olib borilayotgan ta’lim, ijtimoiy va ichki ehtiyojlarni o’quvchilar talabiga javob bermayotganligi to’g’risida dalillar mavjud bo’lsa, qisman yoki mustasno xollarda, to’la amalga oshirilishi mumkin.

Inklyuziv ta’lim bolalarning turli ehtiyojlari va qobiliyatları, jumladan ularni o’rganish usullari va bosqichlaridagi farqlarni aniqlaydi va ularning ehtiyojlarini qondiradi. Bu individuallashgan o’qitish metodi va muofiqlashtirilgan o’quv reja hamda eshitish asboblari va materiallar asosida amalga oshiriladi.

Inklyuziv ta’lim jamoaviy ish bo’lib, javobgarlik butun matab jamoasi bo’yniga yuklatiladi. Bunda sinf raxbari yordam ko’rsatish borasidagi xizmatlarni bajarish orqali asosiy rolni o’ynaydi. Bu kabi yordamlar turli hil shakllarda bo’ladi. Ular quyidagilarni o’z ichiga olishi mumkin:

Maktablararo qatnab yurib o’qitish xizmatini rejalashtirishga kelsak, unda butun matab xodimlari va ish yurituvchi jamoa qatnashishi kerak, uni quyidagi masalalarni o’z ichiga olishiga kelishib olingan:

- *Identifikasiya (aniqlash) va baholash.*

Nogiron bolalar maktablar tomonidan aniqlanadi yoki mahalliy SBR dasturi tomonidan maktablarga yuboriladi. Har bir bolaning muammosi sabablarini,

hamda uning kuchli tomonlarini aniqlash uchun ular mavjud resurs (manbalar) va ularni yuborgan markazlar yordamida yanada yahshiroq baholashdan o'tkaziladi.

-O'QITISH

qachon zaruriyat sezilsa, maktablar aro qatnab yuruvchi o'qituvchi oddiy sinf o'qituvchisiga oddiy va maxsus dars jadvalinini muhim joylarida yordam berishi kerak. Uning yordami asosan yangi mavzu topshirilayotganda, masalan, matematikadan kerak bo'ladi. Amaliyotda bunday faoliyat maktablar aro qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Yoki bo'lmasa, maktablar aro qatnab yuruvchi o'qituvchi butun sinfga qaraydi va sinf o'qituvchisi esa kichik guruhlar bilan ishlaydi.

«Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olinishi kerak bo'lishi mumkin. Ba'zan, rasmiy ta'lim tayyorgarlik ko'rishda bolaga ota-onasi, qarindoshlari va boshqalar tomonidan uyda funktional trening (tayyorlov) berilishi mumkin.

«Hamma vaqtida nima bo'lsada resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan bиргаликда ishlaydi. Resurs o'qituvchining ishlari qo'shimcha sifatida olinishi mumkin, lekin hech qachon oddiy sinf o'qituvchisi dasturi o'rnini olmasligi kerak. Resurs o'qituvchi bilimdon mutahasis sifatida ish olib bormasligi kerak. Ular bиргаликда turli muammolarga javob izlashlari kerak», deb ta'riflaydi Vina xonim.

-qo'llanmalar tayyorlash.

«Maktablar aro qatnab yuruvchi o'qituvchining muhim vazifalaridan biri nogiron bolalar uchun ishlanishi kerak bo'lgan qo'llanmalar tayyorlash va bola hamda sinf o'qituvchi o'rtasidagi aloqani yumshatishdir. Bu xizmatning yana bir muhim qismi maxsus resurs qo'llanmalarini ta'minlash orqali yordam berishdir.

-Maslahat berish xizmati

«Ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o'qituvchilarini va direktorlarga maslahatlar berish resurs o'qituvchi ishlarining diqqat markazidadir. Bundan tashqari maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun faoliyatlar va ularga mos keluvchi ta'lim dasturlari

haqida muhokamalar yuritish, hattoki nogiron bo'limgan bolalarning ota-onalariga ham ma'lumotlar yetkazib turilishi kerak.

-Trening

«Biz resurs o'qituvchilardan maktab hududida o'tkaziladigan turli trening olib borishda foydalananamiz» deydi Vina xonim. «SHu yo'l bilan biz qimmatli bilim va tajribalarni butun dars beruvchi jamoamizga singdiramiz. Natijada jamoa nogiron bolalar haqida umumiylar bilimlarga ega bo'ldi. Maxsus ta'lim olish ehtiyoji mavjud barcha bolalarni maktablarga muaffaqiyatli joylashtirish inklyuziv ta'limni amalga oshirish qo'yilgan ilk qadamlardir.»

-Bahamchihatlik va Boshqaruv

Bizning tajribalarimizda, maktablar aro qatnab yuruvchi resurs o'qituvchi maktab va nogiron bolalar muhtoj bo'lgan manbalar o'rtasida tabiiy ko'priq vazifasini o'tashga harakat qiladi, masalan, maxsus maktablar, resurs (manba) va maslahatlar olinuvchi markazlar, SBR dasturi, ijtimoiy xizmatlar, olib boriluvchi treninglar, kasb-hunarga tayyorlash va hokazolar», deb davom etadi Vina xonim.

Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchilarimizga ish rejalarini tuzishda **ijtimoiy ish xodimi:**

1. Maktab o'quvchilarining maxsus ta'lim olishga bo'lgan talablariga javob beradigan yordamlarni ko'rsatish.

2. Sinf o'qituvchisi bilan birgalikda individual dasturlarni yaratish va uni baholash.

3. O'quvchilar muhtoj bo'lgan xizmatlarni amalga oshirish.

4. Bolaning o'qituvchisi yoki maktabi almashganda u hakidagi ma'lumotlarni yetkazib berishni boshqarish.

5. Yangi kelgan o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish.

6. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar mavjud bo'lgan oddiy sinflarga o'qituvchilarning moslashishiga yordam berish.

7. Sinflarga yordamlar berish.

8. Agar kerak bo'lsa sinfdan tashqarida individual yoki guruhlarga asoslangan ko'rsatmalarni berish.

9. Individual dasturlarni muvaffaqiyatli borishini boshqarish.

10. Maxsus ta'limga muhtoj bolalarni matabning jismoniy muhitiga jalg etishda ularni shu muhitga moslashishiga yordam beruvchi maktab boshqaruvi.

11. Maxsus anjomlar va qo'llanmalarga bo'lgan talab va ulardan foydalanishni boshqarish.

12. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar bilan bog'liq, bo'lgan ichki trening va seminarlarda resurs (manba) shaxs sifatida faoliyat yuritish.

13. O'zgarishlar sababchisi sifatida faoliyat yuritish va Inklyuziv ta'limga rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash.

«Maktablararo qatnab yuruvchi resurs o'qituvchini faoliyat yuritmasligi, ko'p vaqtini yo'lda samarasiz sarflamasligi juda muhimdir. Xizmatlar ko'p yuklatilganda samara shubhasiz pasayadi. SHunday bo'lsada mahsus ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilar malakali va o'zlariga ishongan bo'lishlari kerak, ular boshlang'ich yordamdan ko'ra ko'proq to'g'ridan – to'g'ri beriladigan yordamga tayanishlari muhimdir», deydi Vina xonim.

Inklyuziv ta'limga boshlash.

A. Izlab topish va yordam berish.

- 1 -2 sinfdan boshlab har bir boshlang'ich matabda o'qituvchi tomonidan tashkil qilingan oddiy shakldagi qurol yordamida maktablarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni izlab topish.
- Tibbiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatuvchi hodimlar va boshqa shu haqida qayg'urgan shaxslar yordamida matabdan tashqarida inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni izlab topish.
- Maxsus yordamga muhtoj bolalarni izlab topilgandan so'ng, ba'zi tibbiyot hodimlari va maxsus tayyorlangan mahsus ta'lim o'qituvchilar jamoasi ularga keyingi yordamlarni ham berib borishlari shart. Ularni ko'nglini cho'ktirmang!

- Baholash natijasi sifatida har bir bolaga belgilangan reja asosida yordam berilishi kerak!
- Ota-onalar har doim jalgan etilishi kerak!
- Inklyuziv ta’limni boshlashdan oldin mактаб va ota-onalarni ogoxlantirish orqali unga kerak bo’lgan muhitni yarating. Salbiy munosabatlar va noto’g’i tushunishlar yomon natijalarga olib kelishi mumkin.

V. Inklyuziv ta’limni olib borish.

- Boshlang’ich qadam xar doim oddiy sinflarda individual extiyojlarga mos ravishda ta’limni joriy etish bilan boshlanishi kerak.
- Oddiy sinflarda taxsil oladigan maxsus ta’limga muhtoj bolalar o’qituvchi sinf taxtasiga yaqinroq va zarur bo’lsa, yorug’lik ko’p tushadigan joyga o’tirgizilishi kerak. Maxsus ta’limga muhtoj bolalar bilan iloji boricha oddiy muomalada bo’ling!
- Maxsus ta’lim bo’limi uchun Resurs xona sifatida maxsus mos keluvchi xona yoki joy tanlanishi kerak. Oddiy sinf xonasidan tashqari qo’shimcha yo’l-yo’riqlar berib borsa bo’ladigan xona bo’lishi kerak. Murakkab ehtiyojlari bo’lgan, o’rta yoki og’ir qiyinchiliklari bor bo’lgan bolalarga qo’ishmcha, vaqtinchalik yordamlar ko’rsatish talab etiladi.
- 10-15ta o’quvchidan ko’p bo’lgan maxsus ta’lim bo’limini tashkil etmang. Aks holda bu bolalarga yordamdan ko’ra ko’proq zarar yetkazasiz.
- Bo’limni bolalar bor bo’lgan yoki ular osonlikcha borib - keladigan maktabda boshlang. 10ta bola qatnagandan ko’ra bitta o’qituvchi qatnagini yaxshi!
- Bo’lim uchun tanlangan joy bolalardagi muammolarga moslashtirilgan tarzda shakllantirilishi kerak. Ko’rishi shikastlangan bolalar bo’limi yaxshi yoritilgan va u yerda tovush yaxshi yoritilgan bo’lishi kerak. Eshitishi shikastlangan bolalar bo’limi tovushni yaxshi

qaytaradigan mahalliy materiallardan, noto'qima matolardan yoki shishadan tayyorlanishi kerak va o'qituvchining imo-ishoralari va lab harakatlarini ko'rish uchun yaxshi yoritilgan bo'lisi kerak. U matabning eng shoshqinsiz joyda bo'lisi kerak. O'zlashtirishda qiyinchiliklari bor bo'lган bolalar bo'limi shovqin darajasi past bo'lган va ularni fikrini jamlashga halaqt bermaydigan joyda bo'lisi kerak.

- Yangi maktab binosini qurishda nogiron bolalarning ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Mavjud maktablarda harakatlanishda qiynaluvchi bolalar uchun zarur o'zgartirishlar qilinishi kerak. Masalan, nogiroilar aravachasi yuradigan yo'lakchalar, hojatxona jixozlari va boshqalar.
- Inklyuziv ta'limni iloji boricha yosh, maktabgacha yoshda bo'lган bolalarda boshlash maqsadga muvofiqdir. Ishonchni uyg'otish uchun jamoa qiyinchiliklari yengil va o'rta bo'lган bolalarda boshlangan ma'qul. Ular sinfdagi bolalar bilan bir yoshda bo'lisi kerak. Har bir oddiy sinfda nogiron bolalar ikkitadan ko'p bo'lmasligi kerak.
- Mavjud resurslarni (qo'llanmalarni) tarqatilayotganda mакtab rahbari va jamoa yordamga eng ko'p muhtoj bolalarga ko'proq ahamiyat berishlari kerak.
- Hammaga maxsus bo'limlarni tashkil etish orqali inklyuziv ta'limni olib borishdan maqsad nogiron bolalarni maktablardan ajratib, ulardan qugilish emas, balki ularga oddiy sinflarda yordam berish eganligini tushuntiring.

S.O'qituvchilar.

- Tuman-viloyatda «Inklyuziv ta'lim Resurs jamoasini tuzing. U 6-8 sadoqatli o'qituvchidan tashkil topgan bo'lisi mumkin. Imkon qadar tayyorlovdan o'tgan va turli nogironlik haqida bilimlarga ega maxsus ta'lim o'qituvchilarini tanlang. Ularni Xalq Ta'limi Vazirligidagi 6 xafjalik kurslarga jo'nating (3 hafta nazariya va 3 hafta dars olib borish amaliyoti).

- Resurs jamoaning maqsadi oddiy maktab tizimida qisqa muddatli va mahalliy kurslarni tashkil qilishdir. Bu kurslar uchun Tuman-viloyatdagi barcha o'qituvchilarni jalb etishga harakat qiling. Bu inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun juda muhimdir. Uni maktabgacha ta'lim o'qituvchilari va 1-3 sinflardan boshlang. Maqsad barcha o'qituvchilarga inklyuziv ta'lim to'g'risida boshlang'ich bilimlarni berishdir, Bu ularga oddiy sinflarda yengil ta'limga muhtoj bolalarga yordam berishlarida qo'l keladi. Bu kabi bolalar maxsus ta'limga muhtoj deb topilgan bolalarning 70-80%ni tashkil qiladi.

Darslarni olib boruvchi o'qituvchilar maxsus bilimlar, Brayl va boshqalarni berish bilan cheklanmasdan, hulq-atvor, tekshiruv baholash, gurux, ishlari, dasturga moslashish, individual o'qitish metodlari, sinfni boshqarish va arzon o'qitish qo'llanmalari ulardan foydalanishga ham diqqatni qaratishlari kerak. «Sinf xonalaridagi maxsus ehtiyojlar» UNESCO resurs qo'llanmasi ushbu maqsadda ishlatilishi mumkin.
- Maxsus ta'limga muhtoj bolalar va ularning o'qituvchilariga yordam beruvchi maktablar aro qatnab yuruvchi, ko'p tomonlama nogironlik bo'yicha resurs o'qituvchi tizimini rivojlantirish kerak. Bu vazifa uchun eng yaxshi o'qituvchilaringizni tanlang. Xalq Ta'limi Vazirlip tomonidan tashkil etilgan maxsus tayyorlov kurslariga jo'nating. Ularning bo'yniga juda katta joyni yuklamang, tansport muammolarii bartaraf eting.
- Bir hil yoshdagilar, katta yoshdagi o'quvchilar, ota-onalar, qarindosh urug'lar, ishsiz ko'ngillilar va boshqalarni o'qituvchilarga maxsus yordamga muhtoj bolalarga yordam berishda jalb qiling va ruxlantiring.
- Boshqarish va maslahat berish xizmatlari

- Viloyatlar ta’lim muassasalari maxsus yordamga muhtoj yoshlar va bolalarni boshqarish, rivojlantirish va uyushtirishda inklyuziv maxsus ta’lim mutahasislariga muhtojdir.
- Viloyatlarda maslahatlar berish, ruhlantirish va maktablarda yangiliklar yaratishga qodir inklyuziv maxsus ta’lim «Maslahatchilariga» talablar mavjud.

Ko’rsatmalar

1.Ko’rish qobiliyati past bo’lgan bolalarni sinf taxtasiga yaqinroq joyga, ikkinchi qatorga o’tirgizing.

2.Har ehtimolga qarshi sinfxonasidagi barcha eshik va tokchalarni to’liq berk holda saqlang. Agar sinfxonasining jixozlari o’zgartirilgan bo’lsa, bu haqda ko’zi ojiz bolalarga ma’lumot bering.

3.Ko’zi ojiz odam bilan gaplashishni xar doim o’zingizni tanishtirish bilan boshlang. Tovushni har doim ham ajratish oson bo’lavermaydi.Bu, ayniqsa, odamlar ko’p va asablar tarang holatlarda juda muhimdir.

4.«qara», «eshit» degan so’zlarni ishlatishdan tortinmang. Bu so’zlar bizning lug’at boyligimizda bo’lgani kabi ko’zi ojiz bolaning ham lug’at boyligida mavjuddir.

5. Bambukdan qilingan tayoqcha juda foydali bo’lishi mumkin. Uning uzunligi odamning yelkasidan beligacha bo’lishi kerak. Juda kalta tayoqcha odamni egilishga majbur qiladi va bu uning holatiga to’g’i kelmaydi.

6.O’qitayotganda ko’p tomonlama sezgiga asoslangan yondoshuvdan foydalaning. Bolalar turli usullar yordamida o’rganishadi: ular ko’rish, ushlab ko’rish va eshitish orqali o’rganishadi. Ko’rish qobiliyati shikastlangan bolalar shu kabi uslub va yordamlar asosida ko’rishdagi kamchiliklarini qoplaydilar.

7.Sinf tahtasiga yozayotganining narsangizni ko’zi ojiz bola yozib borishi uchun iloji boricha balandroq ovozda o’qib boring. Sinf tahtasidagi ko’rsatmalarni og’zaki tushuntirib boring.

8.Yangi mavzuni sinfga tanishtirayotganingizda og'zaki tildan iloji boricha ko'proq foydalaning. Bola siz foydalanayotgan har bir ko'rgazmaga, kartaga, jadvallarga yaqin joyda o'tirishi kerak.

9.Bolaga turli tushunchalarni o'zlashtirishi uchun o'qitish qo'llanmalari va uch o'lchamlik ta'lim berilishi kerak. Bolaga o'qitish qo'llanmalarini ushlab ko'rish va ulardan foydalanishga imkon bering.

10.Braylda yozma mashg'ulotlarni tugatishi uchun ko'zi ojiz bolalarga qo'shimcha 50% ko'p vaqt bering.

11.qo'shimcha ko'rsatish uchun Resurs (maktablar aro qatnab yuruvchi) O'qituvchidan yordamlar so'rang. Masalan, harakatlanish uchun bambuk tayoqcha, yozish va o'qish uchun Brayl va matematik amallarni bajarish uchun shyot.

12.Resurs (maktablar aro qatnab yuruvchi) O'qituvchidan bolaga Brayl yoki katta harflar bilan yozilgan qo'shimcha majmualar so'rang. Agar mavjud bo'lsa, magnitofondan foydalaning.

13. Bolaning sinfdoshidan unga kerak bo'lsa yordam berishni so'rang. O'zingizni olib qochmaslikka harakat qiling.

14.qoniqish hosil qilganlik va maqtov tariqasida bolaga og'zaki maqtov bering yoki boshini silab qo'ying. Bu bolaning ijobiy faoliyatlarini oshiradi. Tengdoshlariga unga tanqid va yordam berishlarini aytинг. Ko'zi ojiz bolalarni qabul qilish orqali sinfga ijobiy misol bo'lasiz.

Umumiy o'qitish bo'yicha ko'rsatmalar.Inklyuziv ta'lim bu birinchi o'rinda yaxshi umumiy ta'limdir.U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

O'zingizda mavjud barcha narsadan foydalaning.

Bolaning qiziqishini uyg'otadigan qo'llanmalardan foydalanishga harakat qiling. Boladan barmoqlari va qo'llaridan foydalinishini talab qiluvchi ko'p-maqсадли qo'llanmalarni taklif eting. Bolalar o'zlarining 5ta sezgi organlari orqali o'rGANISHADI: ko'rish, eshitish, tam bilish, xidlash va ushlab ko'rish. SHu sababli bola ko'ra oladigan, eshita oladigan, ta'mini bila oladigan, hidini seza oladigan va ushlab ko'ra oladigan qo'llanmalardan foydalaning.

Ko'pgina mamlakatlarda nogiron bolalar ta'minoti va ular uchun strategiyalarni rivojlantirishda 4ta bosqich yoki yo'nalishni ko'rish mumkin.

1. Ajratish bosqichi. Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilai bog'liq. Ko'plab jamiyatlarda nogiron odamlarga qo'rquv va past nazar bilan qarab ulardan voz kechib kelinmoqda. Nogiron odamlar haddan tashqari og'ir kambag'allikdan qiynalishadi. Agar ularga biror bir ish berilsa, bu ish eng yomon ishlardan biri bo'ladi. Ularning qalbida shayton o'rnashib olgan yoki ular yovuzlik va jodugarlik qurbanlari deb qabul qilishganligi sababli ba'zi hollarda ataylab ularni o'ldirishadi. Rivojlanishning bu bosqichida nogiron odamlarga ahamiyat bermaslik, ularni qabul qilmaslik, azoblash va ulardan foydalanish oqibatida ularni jamiyatning chiqindilari deyish mumkin.

2. Ular bilan shug'ullanish bosqichi. Nogiroi odamlarga diniy va insonparvarlik nuqtai nazaridan yordam beriladi va ular haqida qayg'uriladi. Ko'p hollarda bunday munosabatlar noodatiy uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Nogiron odamlar asosan yordam berish obe'ktidir. Ular o'zlariga ko'rsatilayotgan yordamlarning sifatini baholay olishmaydi.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda, bu kabi ishlar ta'lim tizimida nogiron bolalar uchun «Maxsus Ta'limni» paydo bo'lishi bilan amalga oshiriladi. Jamoaviy modelning umumiyligi qismi sifatida maxsus ta'lim ko'ngilli, asosan missionerlar (Xristian dini targ'ib qiluvchilar), uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Ular xukumat nomi bilan ish ko'rishadi, lekin ular faoliyatiga hukumat aralashmaydi. Ular o'z-o'zini boshqaruvchi bir qancha maxsus muassasalarni tashkil etishgan. Bundam muassasalarga jalb qilingan bolalar yaxshi ta'lim - tarbiya olishadi, lekin ota-onalari va qarindosh urug'lari bilan kam aloqada bo'lishadi. SHu sababli ularning ko'pchiligi ikkinchi nogironlikni orttirib olishadi. Bu ularning segregatsiya (ajralgan holda bo'lish) darajasini yanada yomonlashtiradi.

Bolalarning ba'zilari butun umrlarini ushbu maktablarda o'tkazib yuborishadi.

Bu borada hukumatning aralashuvi juda kam. Nogiron odamlarga jamiyat kam ahamiyat berdi. Bunday holatlarga ayrim bir bahtsiz oilalarning «shaxsiy muammolari» va shu oilalarning o’zлari qo’ldan kelgancha hal qilishi kerak bo’lgan tashvishlari sifatida qarashadi.

3.Reabilitatsiya bosqichi.Bu bosqichda insonlarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarni bajarish qobiliyatları va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish xaqida fikr yuritiladi. SHu sababli, bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta’lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglarni ham olib borishadi. Ular «ob’ekt» emas, balki «sub’ekt» vazifasini o’taydilar. Natijada, ularning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazda turadi. Lekin bunday reabilitatsiya uyushmalar doirasida va asosan beg’araz yordamlar asosida amalga oshiriladi.

Bu bilan bir vaqtda majburiy ta’limni joriy etish orqali oddiy maktablarda maxsus sinflar ochilmoqda. Bunday fikr hamma holatlarda ham nogironlarga bo’lgan achinishdan kelib chiqavermaydi. Balki bunday bolalarning sinfda mavjudligi unga asosiy sababdir.

Bu bosqichda saralash quroli sifatida aqliy testlar juda muhim ro’l o’ynaydi. Maktablarda esa asosan bolalarning o’zlashtirish darajasini aniqlash uchun belgilangan qat’iy imtihonlar tizimiga asoslangan holda «qayta tanlanadi». «Bu kabi ajratishlar’, tez-tez uchrab turadi va bu ta’lim muassasalarida ta’lim olishni hoxlagan bolalarning uchdan bir qismini yoki hattoki yarmini ushbu joydan chiqarib yuborishga xizmat qiladi. Bunday chiqarib tashlashlarga faoliyatning har bir javhasida chidab bo’lmaydi.» (UNESCO 1991y).

4.Integratsiya (aralashuv, ko’shiluv) bosqichi.Jamiyat rivoJINING nogiron odamlarga butunlay moslashayotganligi ushbu yangi paydo bo’lgan bosqichning dalilidir. Nogironlik shaxsni o’rab turgan atrof muhitga bog’liq bo’lmaydi. Buning o’rniga u shaxs va uni o’rab turgan atrof muhit o’rtasidagi aloqaning natijasi sifatida quriladi. 1981 Halqaro Nogironlar Yilining shiori, «*to’liq qatnashish va tenglik*,» yangi «*Jamiyat barchaga*» tushunchasiga asos bo’ladi. Bunda jamiyat o’zining xar bir a’zosiga moslashishga harakat qiladi. Bu shuni bildiradiki, biz

barcha kuchimizni odamlarni jamiyatga emas, balki jamiyatni odamlarga moslashtirishga sarflashimiz kerak, Nogiron odamlarni reabilitatsiya qilish «*to'liq qatnashish va tenglik*,» maqsadiga erishish uchun yetarli emas, Jamiyatning boshqa a'zolariga mavjud imkoniyatlarni nogironlardan tortib olish ham ularni nogiron qilishdir. «*Rivojlanish asosan o'z hayotlarini boshqarishning uddasidan chiqa oladigan odamlarga bog'liq haqidadir. Beg'araz yordam esa boshqalar yordamiga muhtoj bo'lib qolgan odamlar haqidadir.*» (Kolerij, 1993).

Inklyuziv Ta'limdi tan olinishi va Ta'limi Barchaga Halqaro Dekloratsiyani va Maxsus Muhtojlik Ta'limi Tamoyillari, Siyosati va Amaliyoti haqidagi Salamanka bayonotining hayotga tadbiq etilishi yuqorida tilga olingan bilimlarga qarama-qarshiligidir.

SHikastlanish, nogironlik, majruxlik.

-«*SHikastlanish fiziologik, psihologik yoki anatomik tuzulish va faoliyat jihatdan normap bo'lmaslik yoki kamchiliklarga ega bo'lish.*

-*Nogironlik (shikastlanish natijasida) inson uchun bajarish normal bo'lgan yoki belgilangan faoliyatni bajarish qobiliyatidan mahrum bo'lishdir.*

-*Majruhlik shikastlanish yoki nogironlik natijasida shaxs uchun (yoshi, jinsi va ijtimoiy va madaniy omillarga asoslangan holda) ma'lum bir faoliyatni to'liq bajarish imkoniyatidan mahrum bo'lish.*»

Shunday qilib Majruhlik shaxs va atrof muhit o'rtaсидаги munosabatlarning ijtimoiy sabablari natijasida vujudga keluvchi nogironlikdir. Bu nogiron va sog'lom odamlar o'rtaсидаги ijtimoiy aloqalarga salbiy munosabatda bo'lish natijasidir. Agar biz nogironlarning jamiyatning turli jabhalariga kirishlarini taqiqlasak, masalan mактабга borish, biz ularni majruh qilib qo'yган bo'lamiz. Majruh odamlarning paydo bo'lishiga sababchi bu biz, sog'lom odamlardir!

Bolalarda yengil yoki og'ir nogironlik bo'lishi mumkin, lekin ularning majrux, bo'lib o'sishlariga biz, ularning oilasi, qo'ni-qo'shnilar, o'qituvchilari va boshqalarning ularga bo'lgan munosabatlarimiz sababchidir. Agar biz ularga kerak bo'lgan yordamni berishda muvaffatsizlikka uchrasak yoki agar biz ularni o'zimiz bilan teng ko'rmasak, ular majruh bo'lib voyaga yetishadi va

jamiyatning yaxshi integratsiya qilingan mahsuldor a'zosi sifatida hayot kechira olmaydigan muammoga aylanishadi,

Biz nogiron odamlarni teng huquqli fuqarolar sifatida qabul qilishimiz kerak. Biz ularga yoshligidan imkoniyatlarini kengaytirish va uni yaxshilash uchun kerakli muhitlarni yaratib berishimiz kerak. Kerakli xizmatlarni ko'rsatish va muhim siyosiy masalalarda ularning huquqlarini esdan chiqarmasligimiz kerak.

Yana bir muhim narsa bu, nogironlik masalalarini keng ma'noda qabul qilishdir, masalan nogironlikka yetaklovchi sifatsiz ovqatlanish, qoniqarsiz holatlarga sabab bo'luvchi dahshatli kambag'allik zanjiridan ularni ozod etishdir. Bunday zanjir kelajakda hech qanday ish va'da qila olmaydigan sifatsiz ta'lim na tayyorlovlarga olib boradi va buning natijasida kambag'allik yana davom etadi. Biz bunday zanjirni uzib tashlamagunimizcha avlodlar osha davom etaveradi. (2-shaklga qarang).

Ta'lim olishga erkinlik yaratish mavjud holatni yengillashtirish va natijada dahshatli zanjirni uzib tashlashning kalitidir.

Normolizattsiya, integratsiya, imkoniyatlarning tengligi va umumiyligi. Ko'p xollarda *normalizatsiya* iborasi noto'g'ri talqin qilinadi. Bu nogiron odamni *normal* holga keltirish degani emas. Aksincha, ular qanday bo'lsa, shunday qabul qilinish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Ularga jamiyatda teng huquqli insonlar sifatida yashash imkoni berilishi kerak. Normallashtiriladigan narsa bu hayot kechirish tarzidir. «Normal holatlar» deb biz - ma'lum bir mamlakatda yashovchi barcha odamlarga taalluqli mavjud hayot tarzini tushunamiz. Normallashtirishning maqsadi, nogiron fuqarolarga teng HUKUK. va *imkoniyatlar tengligini* berishdir. Masalan, maktabga sog'lom bolalarning 86% borsa, nogiron bolalarning 1,2% emas ularning ham 86% borishi kerak.

Ushbu yangi tizimda nogironlarga jamiyatning «ikkinci darajali shaxslari» sifatida muomala qilish o'z ma'nosini yo'qotadi. Nogiron bolalarni sinflarga ajratish, maxsus joylarga joylashtirish, ajratib ta'lim berish va ularning hayotlariga beparvo bo'lishga ehtiyoj qolmadi.

Oldingi ajratib ta’lim berishlar shuni ko’rsatadiki, bunday tizim odatda yakkalash, ahamiyatsizlik va salbiy munosabatlarga olib kelgan. Bugungi olib borilayotgan harakatlar nogiron shakslarni jamiyatning haqiqiy a’zolari sifatida faoliyat yuritishlariga qaratilgan. Bunday holatlarda an’anaviy tushunchalar yangi tushunchalardan tubdan farq qiladi. Bu kabi yangi intilishlarda integratsiya diqqat markazidagi asosiy narsa bo’lishi kerak. Teng huquqli maktab barpo eting - inklyuziv mvktab - muhim maqsadlardan biriga aylanmoqda. Bu kabi maktablar barcha tabaqalardagi yoshlarni o’z bag’riga olib ularning barcha ehtiyojlariga javob beradi. U o’z bag’ridagi barcha o’quvchilarga moslashgan bo’ladi. Natijada, hech kim siqib chiqarib yuborilmaydigan va hamma bolalarga ochiq umumiylilik muhiti vujudga keladi.

Integratsiyani keng targ’ib qilish uchun segregatsiya (ajratish) bo’lishi kerak. SHundan so’ng, boshidan har bir nogiron bolani unga mos bo’lgan joyga qo’shib qo’yish mumkin. SHunda integratsiya qayta tuzatish tushunchasiga aylanadi. Inklyuziv maktab barchani ajratmasdan o’z safiga qabul qiladi va ularga diferentsiyalashgan ta’lim-tarbiya beradi. Integratsiya to’g’risida gapirishga xojat ham qolmaydi va vaqt o’tishi bilan «maxsus» ta’lim «inklyuziv ta’lim»ga aylanadi. Barchaga sifatli ta’lim berish va teng imkoniyatlar yaratish diqqat markazida bo’ladi. Rivojlanishning bu bosqichiga erishish uchun jamiyatdan nogiron odamlarni chiqarib tashlashni to’xtatish juda muhimdir. Ularga inson huquqlari doirasida munosabatda bo’lish kerak. Nogironlik siyosati to’laligicha beg’araz yordam ko’rinishini olishi kerak va nogiron odamlarni faol jalb etish rejasini tuzish uchun «Jamiyat barcha uchun» tushunchasi asosida segregatsiyani tashkil qilish kerak.

Maxsus ta’limga muhtojlar. Har bir insonda mexr olish, e’tiborda bo’lish, himoyalanish, shaxsiylik, faoliyatlarni ruxlantirish va shu kabi ehtiyojlar mavjud. Nogiron odamlar bundan mustasno emas, lekin bulardan tashqari ularning maxsus, shaxsiy ehtiyojlari bor. Hatti harakatlari, qiziqishlari, qobiliyatları kabi jihatlarga asoslangan holda nogironliklari oz bo’lsada o’hshash bo’lgan taqdirda ham ular bir-biridan farqlanadi. Masalan, ikkita nogironligi bir hil bo’lgan bolalarning biri

ijobiy, ruxlantiruvchi muhitda yashashi mumkin, ikkinchisi esa salbiy, ko'ngilni qoldiruvchi muhitda yashashi mumkin. Ularning ikkalasi ham nogiron bo'lsada, bu ularga bir hil yordam ko'rsatilishi kerak degani emas. Ularning ehtiyojlari yakkama-yakka holda qondirilishi kerak. Buning muhimligi amaliyotda keng tan olingan.

Har bir bola shaxs sifatida mukammaldir va xar bir bola hayotga moslashish va rivojlanish uchun yordamga muhtojdir. Ba'zi bolalar boshqalaridan ko'ra ko'proq yordamga muhtojdir. Boshqalari esa hayotlarining ma'lum bir paytida yoki butun hayotlari davomida maxsus yordamga muhtojdirlar, masalan, maktabda ta'lif olayotgan chog'larida. Bu kabi maxsus, qo'shimcha yordam «Maxsus Ta'lif»ga borib taqaladi. Hozirgi paytgacha, «Maxsus Ta'lif» deganda faqat ko'zi ojizlar, qulog'i og'irlar yoki aqlan rivojlanishdan orqada qolganlar ta'limi tushunilar edi. Bunday cheklangan qarash oqibatida, kichik, boshqa ta'lif tizimlari bilan kam bog'liqda bo'lgan maktab tizimi tashkil etilgan edi. Umumiy maktab tizimi vakillarining «*Bular bizning bolalarimiz emas. Ular Maxsus Ta'lifga qarashli*» degan gaplarini juda ko'p eshitganimiz.

SHu kabi masalalar bugungi kunda nogiron-guruhlarga asoslangan klassifikatsini o'zgartirish va maxsus ta'lifga muhtoj bolalar tushunchasini o'zgartirishga asos bo'lmoqda. Bu keng qamrovli tushuncha o'z ichiga og'ir nogironliklardan yengil qiyinchiliklarga bo'lgan narsalarni o'z ichiga oladi. U an'anaviy nogiron guruhlardan tashqari, o'zlashtirishda ko'proq umumiy muammolar, qaytarishlar va maktabni tashlab ketishlar, bilan muvaffaqiyatsizlikka uchragan bolalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy va hissiy muammolari bor bo'lgan bolalar ham buning ichiga kirib ketadi

Yangi yo'nalishlar. Butun jahondagi ehtiyoj va ta'minot o'rtasidagi bog'liqsizlik nogiron bolalarga ta'lif berish strategiyasini qo'llab-quvvatlashni ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, pullik maxsus maktablar va markazlar hamma holatda ham ajratishni tezlashtiradi va shu bilan birga, ko'plab nogiron bolalarning trening va ta'lifga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmaydi. Oddiy maktablar ko'proq ahamiyat kasb etishi kerak. Ular maqsadlari, o'qitish va dasturlarini

qaytadan tuzishlari kerak va nogiron bolalarni o’z ichiga oluvchi, va turli hildagi o’quvchilarni talabini qondiruvchi inklyuziv yondashuvga qabul qilishlari kerak (3-jadvalga qarang).

TA’LIM

An’anaviy yondashuv	Inklyuziv yondashuv
• Ta’lim ba’zilar uchun	• Ta’lim barcha uchun
• O’zgarmas	• Moslashuvchan
• Jamoaviy o’qitish	• Individual o’qitish
• Ajratilgan muhitda o’rganish	• Integratsiya muhitida o’rganish
• O’qitishga kuch berish	• O’rganishga kuch berish
• Predmetga asoslangan xolda	• Bolaga asoslangan sholda
• Diagnostik-istiqbolli	• Ta’limiy
• Imkonichtlar ajratish orqali cheklangan	• Imkoniyatlar barcha uchun bir hilda

«Kelib chiqishi jihatdan umumiy paralel bo’lgan hozirgi maktab tizimi va maxsus maktablar yo’naltirish va integratsiyadan rivojlanib borayotgan inklyuziv maktablarga aylanib bormoqda. Rivojlanib borayotgan tizim uchun inklyuziv maktablar qo’shimcha tanlanishi kerak bo’lgan imkoniyat emas, balki majburiydir.» (Jangira, 1994)

Buning natijasida oddiy sinf xonasi nogiron bolalar ta’limi uchun birinchi imkoniyatga aylanadi. Og’ir va murakkab qiyinchiliklari bor bo’lgan bolalarga ba’zi hollarda boshqa turdagি, maxsus maktablar va markazlar yoki oddiy maktab ichida maxsus bo’lim kabi dasturlar qo’llanishi mumkin. Sinf xonasi ehtiyojni qondira olmagunga qadar bu qo’shimcha imkoniyatdan foydalanish tavsiya etilmaydi.

Yuqorida tilga olingan strategiyaning sog’liqni saqlash xizmati bilan o’hshashlik tomonlari bor: Kasallarning ko’pchiligiga ularning uylarida yoki yaqin oradagi klinikalarda xizmat ko’rsatiladi. Ba’zilariga shifoxonadan joy beriladi.

Ularning juda oz qismi maxsus tibbiy yordam bo'limida davolanadi. Odatda biz burnimiz oqsa shifokorga murojat qilmaymiz, SHunga o'hshash, ko'pgina maxsus ta'limga muhtoj bolalarning ehtiyojlarini oddiy mакtabning o'zida ham qondirsa bo'ladi. Ularning juda oz qismiga maxsus maktablarda mutahassislar tomonidan zarur yordamlar ko'rsatiladi. Berilayotgan ta'lim, albatta bolaning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi kerak. SHu yo'l orqali qimmatbax.o va yetishmaydigan mutahasis xizmatlari zarur holatlar uchun saqlab qo'yiladi.

Ushbu yangi yo'naliishlarga bog'liq holda, maxsus maktablar keng suratda resurs markazlariga aylana boshladi. Ular o'zlarining yuksak tajriba va bilimlarini qo'llay oladigan keng ko'lamdagи dasturlarda qatnasha boshlashdi. Ular o'zlarining faoliyatlarini oddiy maktablar, oilalar va jamiyat bilan bog'lagan holda olib borishadi.

Rejalashtirish.«Oldingi rejalashtirishlar ko'p hollarda o'lda-jo'lda bo'lган ta'lim tizimini butun jamiyatga xizmat qilishi kerakligi muhim dastak ekanligini o'zida aks ettirmagan edi.» (UNESCO 1989).

Maxsus ta'limga muhtoj bolalarning yo'naltirilgan ta'limi va umumiyligi ta'limga ikkita turli hildagi masala deb qaramasa kerak. Oldingi ta'lim umumiyligi ta'lim rejasining qismi va qolipi vazifasini o'tashi kerak. Hozirgacha biz ta'lim ta'minotini maxsus ta'limga muhtoj bolalarga yetkazib bera olganimiz yo'q, holda biz Ta'lim Barchaga maqsadimizga yeta olamizmi.

Bu ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkillash va ulara fundamental, haqiqat o'zgarishlar kiritishni talab etadi. Maxsus ta'lim extiyojlarini kiritilishini shunday o'zgarish desa bo'ladi.Bolada maxsus ta'limga ehtiyojlari bor deyish, ta'lim soxasidagi maqsadlariga yetishishi uchun bola aniq (qisqa va uzoq muddatli) pedagogik yordam va xizmatlarga MUHTOJ demakdir.

Maktablar turli toifadagi o'quvchilarga xizmat qilishi kerak. Bu maqsadga erishish uchun maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilar uchun oddiy sinf xonalari va sinf o'qituvchisi haqiqiy ta'lim bazasiga va mакtab rahbari ehtiyojlarni qondiruvchi shaxsga aylanish kerak. Javobgarlik sinf o'qituvchisidan olib, boshqa mutahasislarga berib qo'yilmasligi kerak. Buning o'rniga, ular ikkalasi

uyushgan holda o'zaro ish olib borishlari kerak (MES 1990). Bu kabi rivojlanishga butun maktab islohotlaridagi izlanishlar sifatida qaralishi kerak.

«Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi paytda oddiy maktab tizimidan chiqarib turilibdi, chungi hozirgi tizim ularni qabul qila olmaydi, masalan, u ularning talablariga javob bera olmaydi. Haqiqiy rivojlanish yuz tutishi uchun bunday imkonsizlik tan olinishi kerak va unga o'zgartirishlar kiritilishi kerak. SHu sababdan integratsiyaga maktab islohoti sifatida qaralishi kerak. Uning maqsadi mavjud aniq dastur doirasida barchaga ta'lim beruvchi maktab tizimini yaratishdir.» (Xegarti, 1990). Ta'lim xizmatlarini rejalashtirishda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining *Nogiron Odamlar borasida Ish yurituvchi Jahon Dasturi qo'llanmasi doirasida ish yuritish tavsiya etiladi*, 1983: «120ta A'zo Mamlakatlar nogiron odamlarga boshqalar bilan teng ta'lim olish imkoniyatlarini beruvchi huquqlarni tan oluvchi siyosiy qonunlar yuritishi kerak. Nogiron shaxsning ta'limi iloji boricha umumiy maktab tizimida olib borilishi kerak. Ta'lim-tarbiya organlari va majburiy ta'lim to'g'risidagi qonunlar javobgarlikni o'z bo'y nilariga olgan holda, turli darajadagi pogiron bolalarni, eng og'ir nogironlarini ham inobatga olgan holda majburiy ta'limga kiritishlari shart.» (Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1983)

Bu takliflarga Birlashgan Millatlar Tashkilotining *Nogiron Odamlarga Teng Imkoniyatlar belgilovchi Standart qoidalarida* to'ldirishlar kiritilgan (qoida №6, II ilova).

Barcha bolalarning boshlang'ich ta'limdagi ehtiyojlarini qondirish zaokruriyati Ta'lim Barchaga Inklyuziv maktabi doirasida maxsus ta'limga muhtoj bolalar uchun oddiy maktab tizimida ta'lim olishning yangi imkoniyatlarini ochdi.

Ta'limni rejalashtiruvchilar umumiy qabul qilingan 10% ko'satkichni turli zarur muammolarni hal qilish va maxsus diqqat e'tiborga muhtoj bolalarga yordam berishga asos qilib olishlari mumkin. Maxsus diqqat e'tibor deganda biz og'ir nogiron bolalarga xizmatlar ko'rsatish, hamda erta aniqlash, to'g'ri yordam ko'rsatish va o'rta va yengil qiyinchiliklari bor bo'lgan bolalarga kerakli yordamlarni olib borishni tushunamiz.

Nogironlik darajasi o'ta og'ir bolalarning soni kam, va pogironlikning og'irlik darajasi proportsional ravishda kamayib boradi. Maxsus Ta'limga muhtoj bolalarning 75-80%ga oddiy mакtabda kerakli o'zgartirishlar kiritish orqali va maxsus ehtiyojlar ta'limining boshlang'ich treninglaridan o'tgan oddiy mакtab o'qituvchilari yordamida yordam berish mumkin. O'rtacha darajadagi nogiron bolalarga oddiy sinf xonalari yoki maxsus guruh yoki bo'limlarda chuqurlashtirilgan yordamlar ko'rsatish orqali yordam berish mumkin. Ular ko'proq, malakali o'qituvchilarga muhtojdirlar. 5%dan kamroqni tashkil qiluvchi og'ir nogiron o'quvchilar (masalan, umuman ko'zi ko'rmaydigan va eshitmaydigan) maxsus muloqot qilish malakalari va maxsus tayyorlov dasturlari texnikalarini o'zlashtirgan o'qituvchilarga muhtojdirlar.

Inklyuziv ta'limga urg'u berish bilan maxsus maktablar va markazlarni chiqarib tashlash degani emas. Ulardan yanada maxsuslashtirilgan va chuqurlashtirilgan yordamga muhtoj bolalarga yordam ko'rsatishdagi xizmatlarning asosiy qismi sifatida mavjud bo'lib qolishi talab etiladi (7-SHakl). Talab qilinayotgan xizmatni belgilashda asosiy nuqtai nazar ayni bir bolaga qanday yordam eng to'g'ri yordam bo'lishi mumkinligiga qaratilgan bo'lishi kerak. Ko'pgina mamlakatlarda maxsus maktablar hali ham an'anaviy ta'lim berish o'chog'i bo'lib kelmoqda. Maxsus maktablar va markazlarning tajribalari xar tomonlama yuqoridir. O'zimizning bilim va tajribalarimizni biz ular orqali shakllantirganmiz. Ular hukumat, jamiyat va ota-onalarga nogiron shaxslarga ko'proq yordamlar berilsa ularni qanchalik imkoniyat va bilimlarga ega bo'lishliklarini ko'rsatib kelishgan. Hozir ham bunday majmualar ko'plab dasturlar uchun resurs markazlari, ichki trening, oilalarga va nogiron bolalarga yordam berish va oddiy maktablarda maxsus ta'limga muhtoj bolalarga ta'lim berish kabi xizmatlarni ko'rsatishda katta rol o'ynab kelmoqda.

«Mavjud maxsus maktablarga ajratilayotgan investitsiyalar ularning yangi maqsadlari, oddiy maktablarda maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlarni qondirilishga qaratilgan vazifalariga sarflanishi kerak. Maxsus maktablari kam yoki umuman yo'q mamlakatlar inklyuziv maktablar ochish va maxsus xizmatlarni ko'rsatish

borasidagi harakatlariga kerakli maslahatlarni olishlari mumkin, ayniqsa maxsus ehtiyojlar ta'limida o'qituvchilar taylorlashni amalga oshirish, va kerakli jamoani tuzish va ularga ko'plab bolalar va yoshlarga xizmat ko'rsatishida kerak bo'ladigan jixozlangan resurs markazlarini tashkil etish.» (Maxsus Ehtiyojlar Ta'lifi Faoliyati Doirasida, 1994).

Islohotlar. Inklyuziv ta'lurma yangi fikrlarning talqin etilishi milliy islohot va maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun strategiyalarda aniq aks etishi kerak.

Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlar qondirilmayotgan bolalardir. SHu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi kerak va ularning bilim olishlarini ta'minlashi kerak.

Maxsus ehtiyojlar ta'limi ta'lim tizimining bir qismidir. U jamiyat va mutaxasislar qimmati va munosabatlari, moliyaviy resurslarni taqsimlash va o'qitish, o'qituvchilar va maktab tabiatiborasi savollar bilan o'zaro bog'liqdir.

Barchaga ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. «Normal» va «maxsus» ta'lim o'rtaqidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi Inklyuziv maktabda bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi. Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarishi mumkin, lekin ular pedagogik amaliyotni to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. SHu sababdan samarali bo'lishi uchun, islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilari va uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. «*Hukumat miqiyosida qabul qilingan islohotlarning muhimligi ularni ta'lim masalalarini yetarli darajada hal qilishida emas, masalan qay tarzda o'qitish, balki ular sababli yuzaga kelayotgan munozaralarning tabiatini va ta'lim apparatining boshqa bo'limlarida u yuritayotgan siyosatning muhimligidadir.*» (Fulsher, 1991).

XULOSA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar har bir keksa ongi va tafakkurida, faoliyatida muhim o'zgarishlar bo'lishiga shart-sharoit tayyorladi. Bu imkoniyatdan foydalanishda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularining qay darajada rivojlanganligi shu bilan birga siyosiy madaniyat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yuksak ma'naviyat, sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamollik, tibbiy gigiena, ruhiy tetiklik, mustahkam sog'lik, ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki, fuqarolik statusi keksa avlodning hayotiy tajribasi fikr qaramligi, tafakkur qulligidan ozod bo'lgan, muayyan iqtisodiy ongga ega, tadbirkorlikka moyil kishilarni shakllantirishda keksalardagi faollik namunasi taraqqiyot tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bozor munosabatlarining takomillasha borishi, jamiyatimizda ro'y berayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, faol, ijodiy va intiluvchan shaxs ehtiyojini kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda keng ko'lamli amalga oshirilayotgan "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" kontseptsianing dasturiy asosi xisoblanmish ijtimoiy himoya davlat siyosatining mazmunida qayd etilgan:

- xalqimzning siyosiy yetukligi va ijtimoiy faolligini yanada oshirish;
- davlat va jamiyat qurilishi, boshqaruvi ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun siyosiy partiyalar va jamoatchilikning rolini oshirish;
- yordamga muhtojlarga beminnat yordam ko'rsata oladigan badavlat kishilar va tashkilotlarning ezgu faoliyatlarini birlashtirish hamda rag'batlantirish;
- ijtimoiy himoya tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish;
- xalqimizning kayfiyat, orzu-istik va intilishlarini yuksaltirish;
- odamlarning og'irini yengil qilishga qaratilgan intilishlarimizni yanada kengaytirish;
- ijtimoiy muhofazaga birinchi galda muhtoj bo'lgan aholi toifalari-ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar, etim-esir va nogironlar, talaba va pensionerlarning manfaatlarini har tomonlama himoya etish;

-ijtimoiy siyosatimizning huquqiy asoslarini va qonuniy me'yorlarini yanada takomillashtirish;

-el yurtimizga xizmati ko'p singan,o'gitlari bilan ibrat bo'lib kelayotgan muhtaram fahriyalarimiz va pensionerlarimizning sog'lom va mazmunli umr kechirishi uchun yanada keng ko'lamli sharoitlar yaratib berish fuqarolik jamiyatni taraqqiyoti omili sifatida keksalarimizning har tomonlama faolligini yuzaga keltirishni taqozo etadi¹.

Mamlakatimiz o'zining mustaqilligiga erishgan kundan boshlab, demokratik davlatchilikning o'ziga xos rivojlanish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy sohada, ijtimoiy sohada o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonda xalqimiz farovonligi yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy shlar muhtaram prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning tashabbusi bilan bo'layotgan yurtimizdagi o'zgarishlar tahsinga sazovordir. Xalqaro kuzatuvchilar, jahon hamjamiyati ham bu borada respublikamizda amalga oshirilayotgan ishlarga ijobiy baho bermoqdalar. Ayniqsa, har bir yilning bir-biri bilan bog'liq holda nomalanishi va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Ushbu yillar orasida "Oila yili", "Sog'lom avlod yili", "Sixat salomatlik yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Barkamol avlod yili" dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tadbirlarning bosh g'oyasi mazmunida xalqimiz, oilalarning baxtli hayoti, farzandlar kamoli mujassamdir. Bu ishlarning zamirida xalq farovonligi, oila totuvligi, oilaviy munosabatlarning ijobiy qaror topishi singari hayotiy ko'nikmalar yotadi. Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, mazkur bitiruv malakaviy ishining amalga oshirishdagi ko'rsatma va vazifalar, oilaviy munosabatlarni o'rganish, oila va nogiron bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning usul va yo'llari orqali asosiy maqsadga erishish maqsad qilib qo'yildi. Ana shu fikrlarga yondoshilgan holda ushbu amalga oshirilgan bitiruv-malaviy ishining mavzusi "Nogiron bolalarni muruvvat uyiga tushishini oldini olish maqsadida oilani baholash (Farg'ona shahar bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy

¹ Ижтимоий ҳимоя йили: мазмун ва моҳият./Республика маънавият тарғибот маркази. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси hashriёti. Toshkent-2007. 30-бет

muhofaza qilish markazi tajribasida)” deb nomlandi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirshi, ikkita bob, har bir bobda ikkitadan kichik mavzu, xulosa, tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, nogiron bolalarni ijtimoiy himoyalash, ularning jamiyatimizga kerakli insonlar qilib tarbiyalash muammolari va yechimlari, nogiron bollarning muruvvat uylariga tushishini oldini olishda oilaning o’rni va uning imkoniyatlarini oshirishi muammollari, oiladagi ma’naviy muhit, axloqiy-ijtimoiy tarbiyani shakllantirishda amal qilinishi zarur bo’lgan vazifalarni belgilash va uning mohiyatini ochib berish asosiy maqsad qilib qo’yildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.; “Ma’naviyat” 2008.
2. “Aloxida yordamga muxtoj bolalarni ma’naviy va estetik rivojlantirish” mavzusidagi ilmiy - nazariy konferentsiya materiallari. Toshkent-“Uzinkomtsentr”-2002.
3. “Ta’lim hamma uchun” Milliy dastur rejasi. –Toshkent. 2003.
- 4.”Problemy vklyucheniya detey so spetsal’nymi obrazovatel’nymi potrebnostyami v obcheobrazovatel’nyu protsese” Materialy respublikanskogo seminara Almatы.- Almatы «Raritet», 2002.
5. Aleynikova S.A. i dr. Mejdunarodnaya konferentsiya «Problemy vnedreniya inklyuzivnogo obrazovaniya i sposoby ix resheniya» Defektologiya №2, 2002.
6. Asanova M.B. «Otnoshenie roditeley i pedagogov k integrirovannomu obucheniyu detey s narusheniem sluxa» j. Defektologiya №5, 2005.
7. Babanika N.V. «Opыt raboty po integratsii detey s narusheniyami sluxa v obcheobrazovatel’nyu shkolu» j. Defektologiya №4, 2005.
8. Prixodko O.G., Moiseeva T.Yu. «Deti s dvigatel’nymi narusheniyami: korrektsionnaya rabota na pervom godu jizni» Moskva,2003.
9. Ye.M.Mastyukova. «Fizicheskoe vospitanie detey s tserebral’nym paralichom.» Moskva «Prosvetlenie», 1991.
10. R.SHomaxmudova, D.R.Tulaganova «Inklyuziya detey s osobymi potrebnostyami kak zalog uspeshnoy reabilitatsii, adaptatsii i sotsializatsii v obyestve.» str. 207-210 stat’ya. Xalqaro forum materiallari tuplami: “Sog’lom turmush tarzi - barkamol avlod asosidir” («Zdorovyu obraz jizni – osnova garmonichnogo razvitogo pokoleniya») 29-30 noyabrya – 2010.
11. R. SHomaxmudova, A. Berdieva, “Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o’qitish uslublari” uslubiy tavsiyanoma. - Toshkent, OOO “ISHONCH MARKAZ SERVIS”, 2008.

12. R. SH. SHomaxmudova, T. V. Tolmatskaya, M. V. Saipova. “KAK LEGKO UCHITЬSYa” Obuchenie detey s ogranicennymi vozmojnostyami v inklyuzivnoy shkole, posobie. – Toshkent, OOO “ISHONCH MARKAZ SERVIS”, 2008.
13. R. SHomaxmudova, D. Tulaganova, A. Berdieva. “Jismoniy rivojlanishida muammolari bulgan bolalar bilan inklyuziv ta’limi tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar” o’slubiy qullanma, “Razzoqov O. J.” XT bosmaxonasi 2007.
14. L. R. Muminova, R. SHomaxmudova “Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion / rivojlantirish dasturining metodik asoslari” uslubiy tavsiyanoma / “Razzoqov O. J.” XT bosmaxonasi 2007.
15. “POMOGI SVOEMU REBENKU” Posobie dlya roditeley, imeuyushix detey s osobymi potrebnostyami – OOO « »
16. «Inklyuzivnoe obrazovanie detey s ogranicennymi vozmojnostyami» Sbornik tezisov i statey 2- mejdunarodnoy nauchno - praktimkoniyati cheklanganeskoy konferentsii «Aktual’nye problemy razvitiya limkoniyati cheklangannosti rebyonka», - Tashkent, 2008.
- 17.S.Mannopov. Oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi. Ma’ruzalar matni. Farg’ona, 2007.
- 18.“Bola va zamon” jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. № 4. 2009.
- 19.Ijtimoiy ishchining muloqotchanlik malakalari. Tarqatma materiallar. Toshkent, 2007.
- 20.S.Tadjieva., D.Sabirova. “Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish”. Kurs o’tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent, 2009.
- 21.CHicherina Ya.E., Bondareva Ye.V., Nurkel’dieva D.A. Xrestomatiya dlya provedeniya treninga “Osnovy sotsial’noy raboty s det’mi invalidami i ix sem’yami”. Tashkent, 2010.
- 22.G’anieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo’llanmaToshkent 2010
- 23.Ijtimoiy ishchining kasbiy talqini. Toshkent, 2009.

24. G.A. Voytovich. «O'zingni o'zing davola» Minsk, 1988 yil.
25. Abu Ali ibn Sino. «Tib qonunlar» 1-2-3 tomlar.
Toshkent. 1992 yil.
26. Mahmud Hasaniy. «Tabobat durdonalari» Toshkent, 1990 yil.
27. P.A.A Mikulin. «Faol uzoq umr» Moskva, 1977 yil.
28. Mayya Gogulan. «Kasalliklar bilan xayrlashing»
Moskva, 2001 yil.
29. Pol' Bregg. «Kuchli asab kuchini yaratish» Toshkent, 1994 yil.
30. H.Mo'minov. «Sog'lom turmush sog'liqqa yo'l». Urganch,
1996 yil.
31. N.A. Agajanyan, A. Yu. Katkov. «Bizning tanamizning
zaxiralari» Moskva, 1990 yil.
32. Z.M. Evenshteyn «Ommabop parhezshunoslik»
Moskva, 1990 yil.
33. P. Garb. «Uzoq umr ko'ruchilar» Moskva, 1986 yil.
34. M.M. Vilenchik. «Qarishning va uzoq umr ko'rishning biologik
asoslari» Moskva, 1987 yil.
35. I.M. Skurixin, V. A. SHaternikov. «Qanday qilib to'g'ri
ovqatlanish kerak» Moskva, 1989 yil.
36. Ota. Gregor. «Qarimaslik bu madaniyat» Moskva, 1986 yil.
37. G.I. Kositskiy. «Taraqqiyot va yurak» Moskva, 1977 yil.
38. Yaroslov Govorka. «Umr bokiylikka yo'l». Moskva, 1990 yil
39. B.V. Petrovskiy. "Hammabob tibbiy entsiklopediya". Toshkent,
1989 yil.
40. H.Mo'minov. "Sog'lom turmush tarzi-salomatlik ilmi va
amali". Respublika "Salomatlik instituti"-Toshkent
2006 yil.
41. S.Yu. Yurovskiy "Sog'liq uyg'unligi". Fizkul'tura va sog'liq.
Jurnal. 1987 y. Moskva.
42. N. M. Amosov. "Sog'liq haqida o'ylar. " Fizkul'tura va sog'liq.

- Jurnal 1987 y. Moskva.
43. V.E.Rojnova. "Ruhiy davolash bo'yicha qo'llanma". 1979 yil.
Toshkent.
44. Razdatochnyy material seminara v ramkax proekta
«Obespechenie ustoychivosti professii «Sotsial'naya rabota» v
oblasti zashchity rebyonka a Uzbekistane» (2009). Tashkent –
2010 y.
45. Rossiyskaya sotsiologicheskaya entsiklopediya. M., Norma-S 672